

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

A. Mannonov

PUSHTU TILI

TOSHKENT – 2013

Mazkur o'quv qo'llanma ToshDSHda 5220100 – filologiya (pushtu) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan. O'quv qo'llanma pushtu tili tovushlari tizimi, morfologiya va sintaksisini qamrab olgan bo'lib, pushtu tili grammatikasi asoslarini yoritib beradi.

Qo'llanmadan pushtu tili masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar va o'qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

M.Imomnazarov, *filologiya fanlari
doktori,*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti professori*

S. Qoraboyev, *Toshkent davlat
sharqshunoslik instituti Eron-afg'on
filologiyasi kafedrasi doktoranti*

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta va maxsus ta'lim vazirligining 2013-yil 19-apreldagi 128-sonli buyrug'iga asosan 5120100- Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha) yo'nalishida ta'lim oluvchi talabalar uchun asosiy o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan (Ro'yxat raqami 128-078)

Kirish

Pushti tili hind-yevropa tillari oilasining sharqiy eron guruhiga kiradi va Afgʻonistonning ikki rasmiy tillaridan biri boʻlib, davlat tili sifatida 1936 yili eʼlon qilingan. Pushtu tili asosan Afgʻonistonda, qisman Pokistonning shimoliy va gʻarbiy qismlarida tarqalgan. Afgʻoniston Oʻzbekistonning chegaradosh mamlakatlaridan boʻlganligi uchun pushti tilini oʻrganish hayotiy zaruratdir.

Respublikamizda bosqichma-bosqich demokratik tamoyillarning ustivorligiga asoslangan yangi jamiyatni qurishga yoʻnaltirilgan islohotlar doirasida taʼlim-tarbiya ishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Davlatimizning xorijiy sharq mamlakatlari bilan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari mustahkamlanib borayotgan bir paytda chet tillarini, jumladan, sharq tillarini mukammal biluvchi, salohiyatli filologlar, tarjimashunoslar, sinxron-tarjimonlarni yetishtirib berish kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

ToshDSHI eron-afgʻon filologiyasi kafedrasida fors, dariy va pushtu tillari oʻqitiladi. Biroq fors va dariy tillariga nisbatan pushtu tilini oʻqitish imkoniyatlari ancha cheklangan. Bu, avvalo, darsliklar taʼminoti bilan bogʻliq.

Mazkur maqsadlardan kelib chiqqan holda tuzilgan ushbu oʻquv qoʻllanma pushtu tili boʻyicha bakalavriat yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalarga moʻljallangan boʻlib, toʻrt yil davomida oʻtiladigan nazariy mashgʻulotlarning mazmunini oʻz ichiga oladi. Uni tuzishda oʻzbek, rus va afgʻon olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy maqola va darsliklardan foydalanildi.

Qoʻllanma pushtu tili sohasida qilingan dastlabki ishdir. Shuning uchun unda turli nuqson va kamchiliklar boʻlishi tabiiy. Mazkur qoʻllanma ustida bundan buyon ham ish olib borish yuzasidan bayon qilinadigan tanqidiy mulohazalar va takliflar katta mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

Pushtu tili tovushlari tizimi

Unli tovushlar

[i] - old qator yuqori bir tusli qisqa tovushi bo‘lib, biroz o‘rta surilgan. [i] tovushining izolyatsiyalangan holdagi talaffuzi ingliz tilidagi [i] tovushi, hamda rus tilidagi ‘ишак’ so‘zidagi [i] talaffuziga deyarli to‘la-to‘kis mos keladi. Nutq oqimida [i] tovushining talaffuzi uning fonetik holatiga qarab o‘zgarib turadi. Ochiq urg‘uli bo‘g‘inlarda, keyingi ochiq bo‘g‘inlarda unli **i**, **u** va **o** unilari joylashgan hollarda [i] tovushi nisbatan cho‘ziq tovush xususiyatiga ega bo‘ladi (*liri* ‘uzoq’, *wina* ‘qon’ so‘zining vositali kelishikdagi shakli).

Palatal undoshlardan so‘ng [i] tovushi til oldi tovushiga aylanib, deyarli butkul tor tovush xususiyatini oladi. Bu holda [i] rus tilining ‘синий’ so‘zidagi dastlabki [i] tovushiga yaqinlashib, ruscha tor [i] ga nisbatan biroz kengroq talaffuz etiladi. Ushbu tovushdan avval x, γ, ġ, š, undoshlari kelganida esa [i] biroz til orqa tovushi tusini oladi: *jira* ‘soqol’, *hič* ‘hech’.

Ihtiram ‘ehtirrom’, *mihrbani* ‘mehribonlik’, ‘samimiylik’, *wāqi* ‘joylashgan’ kabi arabcha va forsiy so‘zlarda [i] tovushi (ح، ا، ع) arab undoshlaridan oldin kelib, shu qadar kengayadiki, [e] fonemasiga o‘xshab ketib, deyarli [e] kabi talaffuz etiladi: ‘*etiram*’, ‘*merbani*’, ‘*wāqe*’.

[e] - old qator o‘rta ko‘tarilgan cho‘ziq, talaffuzi davomida bir xil tusli rezonatori pasaygan, nisbatan past va orqa tovush. Jaranglashiga ko‘ra [e] rus tilidagi "шесть" so‘zidagi [ye] ga yaqin talaffuz etiladi. [e]dan oldin yumshoq va yarim yumshoq undoshlar kelar ekan, [e] tovushi ham nisbatan tor bo‘lib boradi (*wāle* ‘ariqlar’). Ushbu holda pushtu tilidagi [e] tovushi talaffuzini ruscha ‘лето’ so‘zidagi [e] tovushi bilan qiyoslash mumkin (faqat pushtu tilidagi [e] - bir tusli tovush). Serebral [n] tovushidan so‘ng keladigan [e] qisman burun tovushi xususiyatiga ega bo‘ladi: *māne* ‘olmalar’.

[ə] - zvarakay (zvarekay) - pushtu tiliga xos bo‘lgan qisqa unli tovush. Barcha fonetik hollarda ham urg‘uli, ham urg‘usiz bo‘g‘inlarda uchraydi. U - til o‘rta, o‘rta qator, biroz orqa tomon surilgan qisqacha tovush. Urg‘usiz holatlarda [z] o‘z jaranglashiga

ko‘ra ruscha "cyтoлoкa" so‘zidagi [o] ga yaqin talaffuz etiladi. Urg‘u tushgan hollarda [e] artikulyatsiya o‘rniga ko‘ra lablanmagan [u]ga yaqin turadi. Zvarakayning [u]ga artikulyatsion yaqinligi dialektlarda so‘zning semantikasini o‘zgartirmagan holda [ə] o‘rniga [u] qo‘llash imkonini beradi (*kəm, kūm* ‘o‘sha’).

[a] - o‘rta qator til oldi qisqa unli tovushi. Fonetik holatiga bog‘liq ravishda ham nisbatan old, ham orqa tovush bo‘lishi mumkin. Pushtu tilidagi [a] qisqa tovushi rus tilidagi ‘скалa’ so‘zining birinchi bo‘g‘inidagi, hamda ‘tam’ so‘zidagi [a]ga muvofiq keladi. Pushtucha [a] o‘z akustik xususiyatlariga ko‘ra ruscha [a]dan deyarli farq qilmaydi. Buni ruscha [a] tovushining keng talaffuz etilish diapazoni bilan izohlash mumkin. [a] tovushining yuzaga kelishida lablar ishtirok etmaydi. Muayyan fonetik shart - sharoitda [a] tovushi nisbatan orqa tovush bo‘lib kelishi ham mumkin, masalan serebral ğ, š hamda x, g, γ undoshlaridan so‘ng: *γar* ‘tog‘; *ğay* ‘ovoz’, ‘tovush’; *xar* ‘eshak’. Agar [a] tovushi palatallashgan undoshlardan keyin tursa, u nisbatan old tovush ko‘rinishini oladi: *lak* ‘yuz ming’; *las* ‘o‘n’.

Ushbu hollarda [a] ning talaffuzi akustik jihatdan ruscha *лямк* (*лямка*) so‘zidagi dastlabki [a]ga to‘g‘ri keladi. Serebral [n] bilan qo‘shni bo‘lgan [a] tovushi biroz burun tovushi xususiyatini oladi (*məña* ‘olma’). Urg‘usiz bo‘g‘inlarda [a] reduksiyalashib, o‘zining aniqligini yo‘qotadi: *angūr* ‘uzum’; *Da məña ša xwağa da* ‘Bu olma juda shirin’.

γrə, mlə shakllarida [a] urg‘uli affiks qo‘shilishi tufayli nolga qadar reduksiya mavjud: *γar* ‘tog‘’, *γrə* nisbiy kelishik, *mal* ‘hamroh’ ko‘plikda *mlə, mla* ‘hamroh ayol’. (ح, غ va ا) undoshlaridan oldin kelgan [a] tovushi arab va fors so‘zlarida cho‘ziqlashib, shuningdek o‘zining sifat xususiyatlarini o‘zgartiradi:

arab tilida

ma‘lum

mahluj

paxta’

ba‘d

qāhr

Ahmad

(ism)

pushtu tilida

mālum ‘ma‘lum’

maluč ‘tozalangan

bād ‘so‘ng, keyin’

kār ‘qahr, g‘azab’

Amad ‘Ahmad’

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, tildagi ushbu fonetik hodisa so‘zlar orfografiyasiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

[u] - biroz oldinga surilgan bir tusli orqa qator yuqori tovush. [u] fonemasi lablangan ruscha [n]ga o‘xshab ketadi. *gul* - ‘gul’, *dukān* - do‘kon, *nūk* - ‘tirnoq’ kimnidir so‘zlaridagi [u] tovushining talaffuzi ruscha ‘*kyða*’ so‘zidagi [u]ni eslatadi. [u] tovushining miqdoriy jihati uning fonetik holatiga bog‘liq. Cho‘ziqlik faqat muayyan shart-sharoitda, urg‘u tushgan ochiq bo‘g‘inlardagina namoyon bo‘ladi (*tūri* - ‘qilichlar’, ruscha ‘*puli*’ so‘zidagi [u] bilan solishtiring). Urg‘usiz [u] nisbatan qisqarishiga qaramay, o‘ziga xos ohangini saqlab qoladi (‘*xūla*’), ammo [u] ning nolga qadar reduksiyalashuv imkoniyati ham mavjud. [l] va [y] undoshlaridan keyin keladigan [u] tovushi til oldi tovushi xossasini oladi va ruscha yolashgan [u] ga yoki palatalashgan undoshdan keyin keladigan [u] ga deyarli mos keladi. Serebral [ŋ] tovushi bilan qo‘shniligi [u]ni burun tovushiga aylantiradi. γ, x, h undoshlaridan so‘ng [u] nisbatan til orqa tovushi tusini oladi.

[o] - cho‘ziq tovush, ruscha [o]ga nisbatan biroz lablashgan, til orqa o‘rta *pushtucha* [o] ruscha [o]ga nisbatan qattiqroq talaffuz etiladi. Urg‘usiz holatlarda [o] - reduksiyalashadi, so‘z oxirida esa urg‘usiz [o] o‘zining sifat jihatidan aniqligini qisman yo‘qotadi. Ko‘plik son nisbiy kelishikdagi urg‘u tushmagan [o] qisqa talaffuz etiladi va hatto [u]ga monand talaffuz etilishi mumkin: qiyos. *kawūnku* - *kawūnko*. Palatalashgan [l] hamda undosh [y]dan so‘ng kelgan [o] til oldi unlisi tusiga ega bo‘ladi: *yosa* - ‘olib ket’; *lor* - ‘o‘roq’. Agar [o] serebral [ŋ]dan so‘ng kelganida, u burun tovushiga aylanadi (*kāño* - vositali kelishik, ko‘plikdagi *kāñay* ‘tosh’ so‘zidan) undoshlaridan keyin kelgan [o] tovushi qisman til orqa tovushi xususiyatini oladi.

[ā] - til orqa, cho‘ziq tovush bo‘lib, biroz lablashgan. Pushtu tilidagi [ā] ruscha portlovchi [a]ga nisbatan til orqa tovushi. Shuni ham qayd etib o‘tish kerakki, ba’zi shevalarda [ā] to‘liq [o] tovushuga lablashadi (vazir, afridiy lahjalarida). So‘z boshidagi urg‘usiz bo‘g‘inlarda [ā] reduksiyalashadi va yarim cho‘ziq tovush tusini oladi. Sifat aniqligi ko‘p yo‘qotilmaganligi tufayli qisqa [ā] bilan butkul mos kelmaydi. Serebral [ř] hamda palatalashgan [l] dan keyin [ā] nisbatan til oldi tovushi tusini oladi: *lāra* - ‘yo‘l’, *wřāndi* -

‘olg‘a’. Uning oldida joylashgan serebral [ŋ] undoshi unli [ā]ga burun tovushi xususiyatini beradi: *pāña* - ‘barg’, *ranā* - ‘yorug‘lik’, ‘nur’.

Diftonglar

Pushtu tilida quyidagi soxta diftonglar mavjud: *au*, *ay*, *āy*, *əy*, *uy*. Misollar: *d‘aul* – ‘ko‘rinish’, ‘nav’; *paysa* – ‘pul’; *pāu* – ‘chorak’; *mauze* – ‘pozitsiya’; *buy* – ‘hid’. Diftongdan so‘ng boshida unli tovush kelgan morfologik element qo‘yilsa, u holda diftong ajralib, bo‘g‘inga oid bo‘lmagan [u] [w] ga aylanadi: *mauze* ‘pozitsiya’, ‘mavze’, ko‘plikda *mawāze*; *pāu* – ‘chorak’, ko‘plikda *dwa pāwa* va h.

Pushtu tili unlilari jadvali

Qator Tilning ko‘tarilish darajasi	Old	O‘rta	Ort
Yuqori	I		u
O‘rta	E	ə	o
Quyi		A	ā

Undoshlar

Pushtu tili undoshlari tizimining o‘ziga xos xususiyati serebral *t*, *d*, *r*, *g*, *š*, *ñ* tovushlarining mavjudligidir; *g* va *š* bu tilning g‘arbiy tarmog‘iga oid.

Pushtu tilida undoshlarning qattiq yoki yumshoqligi ma‘no farqlashda ahamiyatga ega emas. Pushtu tilida 30 ta undosh tovush bo‘lib, ular 18 ta jarangli va 12 ta jarangsiz tovushga ajraladi.

Jarangli tovushlar: *b*, *ž*, *ĵ*, *d*, *d*, *z*, *r*, *ř*, *j*, *g*, *γ*, *g*, *l*, *m*, *n*, *ñ*, *w*, *y*.

Jarangsiz tovushlar: *p*, *t*, *t*, *s*, *c*, *č*, *x*, *š*, *f*, *k*, *h*.

b, *p*, *t*, *s*, *z*, *d*, *c*, *č*, *k*, *g*, *r*, *m*, *n*, *f*, *y* tovushlari rus tilidagi shu kabi tovushlardan deyarli farqlanmaydi. Masalan: *bārān* ‘yomg‘ir’, *cā* ‘quduq’, *pāk* ‘toza’, ‘pok’, *cāy* ‘choy’.

Pushtu tili undoshari jadvali

Paydo bo'lish usuliga ko'ra	Harakatlanish organiga ko'ra	Lab			Til			Uvelyar	Farinal
		Lab-lab	Lab-tish	Til oldi	Serebral	Til o'rta	Til orqa		
Portlovchi	jarangli	b		d	d'		g		
	jarangsiz	p		t	ʈ		k		
Spirantlar (frikativ)	jarangli	w		z j	ğ	y		ɣ	
	jarangsiz		f	s ʃ	š			X	h
Affrikatlar	jarangli			ž j					
	jarangsiz			c č					
Sonor	yon			l					
	burun	m		n	ñ				
	titroq			r	ř				

[w] - pushtu tilida jarangli lab-lab tovush hisoblanadi.

Pushtu tilida t, d, r, j, sh, n serebral undoshlari mavjud. [t] va [d] ni talaffuz qilishda til uchi alveolalardan yuqoriga ko'tarilib, 'portlashdan' so'ng til neytral holatga tushadi.

[r] sonor tovushi - retrofleks tovush. [r]ni talaffuz qilishda til uchi nafakat yuqoriga, balki ortga ham bukilib, so'ng old tomonga harakatlanadi. Bunda [r] va [l] o'rtasidagi tovush hosil bo'ladi.

[n] - serebral tovushini burun tovushi deyish to'g'ri bo'ladi.

[l] tovushi ruscha [l] ga ancha yaqin bo'lishiga qaramay, biroq biroz qattiqroq talaffuz etiladi. Pushtu tilida [l] nutq oqimining ba'zi alohida holatlarida yumshoqlashuvi mumkin (*liri* 'uzoq', *lār* 'yo'l').

Ba'zi so'zlardagi [l] tovushi ruscha qattiq [l] kabi talaffuz etiladi, masalan: *ālla* 'olloh'.

Spirantlar - [j] va [s] tovushlari pushtu tilida ruscha shu kabi tovushlarga nisbatan birmuncha yumshoq talaffuz qilinadi.

Undosh [x] chuqur til orqa tanglay tovushi. Ruscha [x] dan, shuningdek, tarangligi bilan farqlanadi. Jaranglashiga ko'ra ruscha 'xopomo' so'zlaridagi [x]ga yaqin talaffuz etiladi.

Undosh [g'] [g'ayn] pushtu tilidagi [x] tovushi kabi artikulyatsiyalashadi. Biroq [g'] [g'ayn]ni talaffuz qilishda til uchi titrab turadi. Rus tilida bunday tovush yo'q.

Undosh - rus tilida ekvivalentiga ega bo'lmagan faringal spirant tovush. Pushtu tilidagi [] paydo bo'lish usuliga ko'ra ingliz, nemis va boshqa tillardagi [] ga muvofiq keladi. Akustik jihatlariga ko'ra rus tilidagi 'ara' (aa) undov so'zidagi [g] tovushiga o'xshaydi. Unlilar orasida joylashgan ba'zan [y] ga aylanishi ham mumkin: *dwaham -dwayəm* 'ikkinchi'.

[j] va [z] affrikatlari kabi tovush rus tilida yo'q. [j] tovushi - til oldi jarangli affrikat tovush va u jarangli [d] hamda [j] jarangli spirantdan iborat. [z] tovushi ham til oldi jarangli affrikat tovush, u portlovchi jarangli [d] va jarangli [z] spirantidan iborat.

Urg'u

Pushtu tilidagi urg'u zarbli (dinamik), erkin (turli joyga to'g'ri keladi) va siljuvchandir: *tora* 'qora', *sara* 'sovuq', *hukumat* 'hukumat'.

Urg'u bir bo'g'indan ikkinchisiga o'tishi mumkin: *zarg'un* 'yashil', *zarg'una* 'yashil' (jen. rod), *zarg'une* 'yashillar'. Tilda til tarkibi bir xil, ammo urg'u turli joyga tushib, shu bilan ma'nosi boshqacha bo'lgan bir qator so'zlar mavjud: *inda* 'qultum', *inda* 'shumg'iya', *pesha* 'hodisa', *pesha* 'taqlid'. Bunday hollarda urg'u ma'no ajratuvchi vazifa bajaradi.

Ba'zi izohlar

Pushtu tilida chuqur til orqa [k] [] bo'lmasa ham, an'anaga ko'ra so'zlar [] bilan yozilaveradi.

1. Pushtu tilida talaffuzda jarangli [d] va [b] tovushlari jarangsizlashib, ular o'rnini muvofiq jarangsiz tovush egallashi mumkin, masalan: *ziyād* - *ziyāt* 'ziyod', 'ortiq', *mundəl* - *mundəl* 'topmoq', *xarāb* - *xarāp* 'xarob', 'buzilgan'.

3. Pushtu tilida so'z ikki va undan ortiq undoshlardan boshlanishi mumkin (sxwandar 'buqacha') bo'lib, bu hodisa fors tilida uchramaydi.

4. Unli tovush bilan tugagan so'zga shu kabi unli bilan boshlangan qo'shimcha (suffiks) qo'shilganida, ular orasiga, odatda, y undosh tovushi qo'yiladi: mulla "mulla", k.s. mulayan; topchi 'to'pchi', k.s. topchiyan.

5. Pushtu tilida undoshlar o'rin almashishi holatlari ham kuzatiladi, masalan: *rwaž* - *wraž* 'kun', *mžaka* - *žmaka* 'yer', *kšəl* - *škəl* 'tortmoq', 'jalb etmoq', *arwedəl* - *awredəl* 'eshitmoq', 'tinglamoq', *šketa* - *kšeta* 'pastga' va boshq.

6. Pushtu tilida undoshlar kirishishi hodisasi ham kuzatiladi: *ye* - *ne*, *te ye te*, *tər ye* - *tre*, *pər ye* - *pre* va h. Agar [wu] prefiksi [a] unli tovushi bilan boshlangan fe'llarga qo'shilar ekan, bunday holda u fe'lining [a] tovushi bilan kirishib ketadi, masalan: *Kitāb mawaxist* 'Men kitobni oldim' (*Kitāb mi wu axist* o'rniga), *Xat mi pə posta ki wačawə* 'Men xatni (pochtaga) tashladim'. [wu]dan so'ng [ye] olmoshli enklitika kelar ekan, u holda 'wu ye' emas, balki 'we' talaffuz etiladi: *Wewayəl* 'U dedi', *Welwala* 'Uni o'qigan'.

Pushtu tili yozuvi

Afg'onlar yozuvda arab - fors grafikasidan, unga undoshlar uchun sakkizta belgi hamda arab va fors tilida mavjud bo'lmagan unlilar: *ṭe*, *ce*, *žal*, *d'al*, *ře*, *ḡe*, *šin*, *ñun*, yay-i-majhul ([e] tovushi) qo'shimcha harflarni qo'shgan holda foydalanadilar.

Pushtu tili alifbosida qirq ikkita belgi mavjud. Aytish joizki, qirq ikkinchi ya-i-tanis belgisi faqat muannas jinsdagi so'zlarda [əy] diftongini ifodalash uchun qo'llanadi. Raqamlar chapdan o'ng tomonga tomon yoziladi. Yozuvda harflar shakli ularning so'zdagi o'ni: so'z boshi, o'rtasi yoki oxirida kelishiga bog'liq holda turlicha bo'ladi. Pushtu tili fonetikasi bilan arab va fors tillari fonetikasi

o'rtasida jiddiy farq mavjudligiga qaramay, afg'onlar arab-fors alifbosiga katta o'zgartirish kiritmadilar (unga qo'shimcha belgilar kiritdilar, xolos). Shu sababli pushtu tiliga oid ba'zi tovushlar bir necha belgi bilan ifodalanadi, masalan:

T	ط، ت	(odatda faqat arabcha so'zlarda qo'llanadi)
Z	ذ، ز، ض، ظ	(faqat arabcha so'zlarda qo'llanadi)
S	ث، س، ص	(faqat arabcha so'zlarda qo'llanadi)
K	ق، ک	
H	ح، ه	(faqat arabcha so'zlarda qo'llanadi)

(ayn) harfi ham faqat arab tilidan kirib kelgan so'zlarda uchraydi. Pushtu tilida ع harfi bilan ifodalangan tovush mavjud emas.

Satr usti va satr osti belgilari (harakatlar)

Arab-fors grafikasidagi satr usti va satr osti belgilar tizimi pushtu tiliga biroz o'zgartirishlar bilan moslashtirilgan bo'lib, pushtu fonemalari tarkibi arab va fors tili fonemalari tarkibidan farqlanadi. Bu belgilar odatda yozilmasa ham, ammo ularni o'quv qo'llanmalari va lug'atlarda uchratish mumkin.

- ـَ zabar (yoki fatha) qisqa [a] tovushini ifodalashga xizmat qiladi.
- ـِ zir (yoki kasra), pushtu tilida [i] tovushini anglatadi.
- ـَ zvarakay (ə - zvarakay tovushini bildiradi).
- ـُ pish (yoki damma), pushtu tilida [u] unlisini ifodalashga xizmat qiladi.
- ـُ pushtu tilida [o] tovushini ifodalab keladi.
- ـْ tashdid, unlining kuchaytirib talaffuz etilishini anglatadi.
- ـَ madda, odatda alif ustiga cho'ziq tovushni ifodalash maqsadida qo'yiladi (odatda so'z boshida).
- ـَ tanvin, so'z undosh [n] tovushi bilan tugashini anglatadi. Pushtu tilida tanvin arab tilidan kirib kelgan ravish ma'nosidagi so'zlarda ishlatiladi. Masalan: *rasman* 'rasman'.

◌ sukun, undoshdan keyin unli tovush yoʻqligini (kelmasligini) bildiradi.

Transkripsiya

Afgʻoniston tillarini oʻrganishda kirill va lotin grafikasiga asoslangan transkripsiyalar qabul qilingan. Pushtu tilini oʻrganishda va tadqiqotlarida biz fonematik transkripsiyadan foydalanamiz.

PUSH TU TILI ALIFBOSI

<i>Qq</i>	ق	<i>Rr</i>	ر	<i>Āā</i>	ا
<i>Kk</i>	ک	<i>Řř</i>	ړ	<i>Bb</i>	ب
<i>Gg</i>	گ	<i>Zz</i>	ز	<i>Pp</i>	پ
<i>Ll</i>	ل	<i>Ĵĵ</i>	ژ	<i>Tt</i>	ت
<i>Mm</i>	م	<i>Ğğ</i> (o‘q-shi - j, g)	ښ	<i>Ťť</i>	ټ
<i>Nn</i>	ن	<i>Ss</i>	س	<i>Ss</i>	ث
<i>Ňň</i>	ڼ	<i>Şş</i>	ش	<i>Jj</i>	ج
<i>Ww</i>	و	<i>Šš</i> (o‘q-shi - sh, x)	ښې	<i>Čč</i> (o‘q-shi - ch)	چ
<i>Hh</i>	ه	<i>Ss</i>	ص	<i>Cc</i>	خ
<i>ay</i>	ى	<i>Zz</i>	ض	<i>Žž</i> (o‘q-shi - dz, z)	ح
<i>i</i>	ي	<i>Tt</i>	ط	<i>Hh</i>	ح
<i>e</i>	ې	<i>Zz</i>	ظ	<i>Xx</i>	خ
<i>‘y</i>	ئ	‘	ع	<i>Dd</i>	د
<i>əy</i>	ى	γ	غ	<i>Ǧǧ</i>	ډ
		<i>Ff</i>	ف	<i>Zz</i>	ذ

Lugʻaviy tarkibi

Til leksikasining asosini sof pushtu soʻzlari tashkil etadi. Bu guruhga qarindoshlik munosabatlarini, tana qismlari, uy-roʻzgʻor buyumlari nomlarini anglatgan otlar, shuningdek feʼllar, koʻpgina sifatlar, soʻz oldi qoʻshimchalari va koʻmakchilar kiradilar.

Ilm-fan va texnikaning rivoji, Afgʻonistonning boshqa mamlakatlar bilan madaniy va iqtisodiy aloqalarining kengayishi pushtu tiliga yangi atamalar kirib kelishiga, baynalmilal soʻzlar koʻpayishiga koʻmaklashadi. Masalan: *idiālizm* ‘idealizm’, *suryālizm* ‘syurrealizm’, *riyālizm* ‘realizm’ va h.

Zamonaviy pushtu adabiy tilining lugʻaviy tarkibi arab, fors, tojik, rus, ingliz va boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlarni ham oʻz ichiga oladi, masalan: *kitāb* ‘kitob’, *tālib* ‘tolib’, *sāni* ‘ikkinchi’, *jamāl* ‘jamol’, *barik* ‘ingichka’, *bozicha* ‘oʻyinchoq’, *bāzgar* ‘dehqon’, *kamayi* ‘ish haqi’, *samāwar* ‘samovar’, *patnus* ‘patnis’, *patate* ‘kartoshka’, *swic* ‘yoqqich’, *brek* ‘tormoz’, *teprikārdar* ‘magnitofon’ va h.

Savollar

1. *Pushtu tilida nechta harf mavjud?*
2. *Pushtu tilida nechta unli tovush mavjud?*
3. *Pushtu tilida nechta undosh harf mavjud?*
4. *Pushtu tili yozuvi qaysi alifboga asoslanadi?*
5. *pushtu tilidagi diftonglarni sanang.*

Morfologiya

Pushtu tilida soʻz turkumlari orasidagi chegara oʻta oʻzgaruvchan. Baʼzan bir xil soʻzning oʻzini uning gapdagi oʻrniga bogʻliq ravishda ham ot, ham sifat tarzida qoʻllash mumkin.

Shuni ham aytib oʻtish joizki, mustaqil soʻz turkumlari (feʼl bundan maʼlum maʼnoda istisno) pushtu tilida tegishli oʻziga xos morfologik xususiyatlarga ega emaslar. Shunday qilib, soʻzlar semantikasi va ularning sintaktik funktsiyasi ularni u yoki bu soʻz turkumiga qoʻshishda asosiy belgi hisoblanadi. Masalan:

<i>tora</i>	"qora"	<i>tura</i>	"qilich"
<i>stun</i>	"qaytgan"	<i>shpun</i>	"podachi"
<i>stane</i>	"qaytganlar"	<i>shpane</i>	"podachilar"

Yuqoridagi misollar pushtu tilidagi ot va sifatlarning morfologik jihatdan farqlanmasligini yaqqol namoyon etadi.

Ot

Ot predmetning ma'nosini ifodalaydigan so'z turkumidir. Pushtu tilida kishilarni ifodalovchi otlar *خوک* *cok?* 'kim?' degan so'roqqa javob bo'ladi: *دا خوک دی* *Dā cok dāy?* *زده کوونکی دی* *Dā zdakawūnkay dāy* 'Bu kim? Bu – o'quvchi'.

Hayvonot va jonsiz predmetlarni ifoda etuvchi otlar *څه* *cə?* 'nima?' so'rog'iga javob bo'ladi. *دغه قلم دی* *Daya cə dāy?* *دغه قلم دی* *Daya qalam dāy* 'Bu nima? – Bu ruchkadir'. Pushtu tilida otlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra dastlab ikkiga ajraladi: turdosh otlar

Otlarning jins kategoriyasi

Pushtu tilida otlar jins (rod) kategoriyasiga egadir. Har bir ot ikki grammatik jins - muzakkar va muannas jinsga mansub bo'ladi.

Muzakkar jinsqa (m-r.j.) oid so'zlarga ma'nosiga ko'ra (erkak jinsiga mansub otlar nomi) so'zlar kiradi: *شاهزادا* 'shahzoda'.

Shunungdek, so'zning qanday tovushga tugashiga ko'ra;

- 1) undosh tovushga tugagan so'zlar: *qalam* 'qalam'
- 2) [ay] diftongi bilgn tugaydigan so'zlar: *storay* 'yulduz'
- 3) [oy] diftongiga tugaydigan so'zlar: *soy* 'quyon'
- 4) [ūy] diftongi bilan tugaydigan so'zlar: *būy* 'hid'
- 5) [ū] unlisi bilan tugaydigan so'zlar: *čāqū* 'pichoq'
- 6) [i] unlisi bilan tugaydigan so'zlar (shaxslarni faoliyatiga ko'ra belgilaydigan, kasb, hunarini bildirgan so'zlar: *tūpči* 'to'pchi');
- 7) [ay] diftongi bilan tugaydigan so'zlar: *žāy* 'joy'.

Muannas jinsqa (m-s.j.) oid so'zlar ham ma'nosiga ko'ra (ayol jinsiga mansub otlar nomi): *xor* 'opa' *mor* 'ona' *lor* 'qiz' va h.

Shunungdek, so'zning qanday tovushga tugashiga ko'ra;

- 1) qisqa [a] unlisi bilan tugagan so'zlar: *stərga* 'ko'z'

2) cho‘ziq [ā] unlisi bilan tugagan so‘zlar: *ṣā* ‘bel’

3) [i] unlisi bilan tugagan so‘zlar (mavhum, aniq bo‘lmagan tushunchalar va jonli mavjudotlar nomi) : *wrori* ‘birdamlik’, *piṣi* ‘mushuk’

4) [əy] diftongi bilan tugagan so‘zlar: *kərkəy* ‘deraza’

5) [o] ga tugagan so‘zlar: *rād’io* ‘radio’

6) [e] unlisi bilan tugagan so‘zlar: *nāwe* ‘kelin’

7) [ən] va [z]ga tugagan aksariyat so‘zlar *stən* ‘igna’, ‘stolba’, *wraž* ‘kun’

8) ɛ [ayn] bilan tugagan barcha so‘zlar va oldida [i], [o], [a], [u] unli tovushlari kelgan [h]ga tugovchi so‘zlar ham muannas jins tarkibiga kiradilar: *ṣūrū* ‘boshlanish’, *mamnū* ‘cheklov’, ‘ta’qiq’, *islā(h)* ‘islohot’, *panā(h)* ‘boshpana’, ‘panoh’ va h;

9) undosh tovush bilan qator so‘zlar ham muannas jinsga talluqli bo‘la oladi: *myāšt* ‘oy’, *lwešt* ‘chorak’, *cangal* ‘tirsak’ va h.

Muzakkar va muannas jins o‘rtasidagi jinsi o‘zgacha bo‘lgan (shaxsiy) otlar va hayvon (jonivor)lar nomlaridagi farqlar. Shaxsiy nomlarda bu kabi farq ikki xil usulda ifodalanishi mumkin:

1) faqat leksik jihatdan: *plār* ‘ota’, *mor* ‘ona’

2) bitta o‘zakdan yasalgan turli so‘z shakllari bilan: *paštūn* ‘afg‘on’, ‘pushtun’, *paštana* ‘afg‘on ayol’, ‘pushtun ayol’

Jonivorlar nomidagi turli jinsga oidlik xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lib, jinslardagi farqlanish leksik jihatdan yoki so‘z yasash yo‘li bilan ifodalanadi: *γwayay* ‘buqa’, *γwā* ‘sigir’, *mağ* ‘qo‘chqor’, *meğ* ‘qo‘y’, *čərg* ‘xo‘roz’, *čərga* ‘tovuq’.

Ba‘zi jonivorlar nomlarida otlarning jinsi jinsiy farqni aks ettirmasligi ham mumkin. Bunday hollarda jinsdagi farqni bildirish maqsadida so‘zga *nar* ‘nar’ va *šeža* ‘moda’ so‘zlari qo‘shib qo‘yiladi: *nar hiləy* ‘nar o‘rdak’, *šeža hiləy* ‘moda o‘rdak’.

Otlarning son kategoriyasi

Pushtu tilida otlar birlik va ko‘plik kategoriyalarini mavjudligi bilan farqlanadi. Barcha otlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

- faqat birlikda ishlatiladigan so‘zlar: *spintob* ‘oqlik’, *dosti* ‘do‘stlik’

- faqat ko‘plikda ishlatiladigan so‘zlar: *yanəm* ‘bug‘doy’, *angūr* ‘uzum’
- ham birlik, ham ko‘plik sonda ishlatiladigan so‘zlar: *kitāb* ‘kitob’.

Otlarda ko‘plikning ifodalanishi

Pushtu tilida otlar ko‘plik son shaklini jins kategoriyasi hamda so‘zning tugashiga bog‘liq ravishda turli usullar bilan tashkil etadilar.

Muzakkar jinsga oid va undosh tovush bilan tugagan otlar quyidagicha usulda ko‘plik shaklini hosil qiladilar.

Jonivorlar nomi [ān] suffiksini oladi:

uś ‘tuya’ - *uśān* ‘tuyalar’

Jonsiz buyumlar nomini anglatgan so‘zlar [una] suffiksini oladi:

kor ‘uy’ - *korūna* ‘uylar’

Tarkibida qisqa [a] unlisi bo‘lgan sodda otlar ko‘plik sonda [ə] (zvarakay) qo‘shimchasini olib, qisqa [a] unlisi esa tushib qoladi:

yal ‘o‘g‘ri’ - *ylə* ‘o‘g‘rilar’

So‘nggi bo‘g‘ini tarkibida [o], [u] unlisiga ega bo‘lgan otlarda ko‘plik sonni ifodalashda [o] va [u] cho‘ziq [a] ga aylanib, bunda [ə] zvarakay urg‘uli so‘nggi bo‘g‘in qabul qiladilar:

paštūn ‘afg‘on’, ‘pushtun’, - *paštānə* ‘afg‘onlar’, ‘pushtunlar’

So‘nggi bo‘g‘ini tarkibida qisqa [a] bo‘lgan otlarda ko‘plikda uning o‘rnini [ə] - zvarakay egallaydi yoki [una], [an] qo‘shimcha (suffiks) larini qabul qiladilar:

tūpak ‘miltiq’ - *tūpək* ‘miltiqlar’

[ay] bilan tugagan otlar tarkibida ko‘plik sonda [ay] o‘rnini [i] egallaydi:

sařay ‘odam’, ‘erkak’ - *saři* ‘erkaklar’

kəlay ‘qishloq’ - *kəli* ‘qishloqlar’.

Tarkibida cho‘ziq [u], [ā] unlilari bo‘lgan otlar ko‘plik sonda [gān], [ān] qo‘shimchalarini oladilar. Agar qo‘shimcha cho‘ziq [ā] unlisi bo‘lgan so‘zga qo‘shilsa, qo‘shimchadan avval [y] qo‘yiladi:

mullā ‘mulla’ - *mullāyān* ‘mullalar’

čāqū ‘pichoqcha’ - *čāqūgān* ‘pichoqchalar’

[ə] zvarakay, [ay], [oy], [uy]ga tugagan va jonivorlarni anglatgan soʻzlar koʻplikda [ān] qoʻshimchasini, jonsiz narsalarni bildirgan otlar esa - [una] qoʻshimchasini qabul qiladilar:

zřa ‘yurak’ - *zřūna* ‘yuraklar’

soy ‘quyon’ - *soyan* ‘quyonlar’

Soʻnggi boʻgʻini tarkibida qisqa [a] boʻlgan mujskoy rodga oid otlar koʻplikda [gān] qoʻshimchasini oladilar:

numāyanda ‘namoyanda’, ‘vakil’ - *numāyandagān* ‘namoyandalar’, ‘vakillar’

[i] bilan tugagan otlar koʻplik sonda [ān] qoʻshimchasini oladilar:

bandi ‘bandi, asir’ - *bandiyan* ‘bandilar’, ‘asirlar’

Urgʻuli qisqa [a] bilan tugagan jenskiy rodga oid otlarda koʻplikda uning oʻrnini urgʻuli [e] egallaydi:

taxta ‘doska’ - *taxte* ‘doska’

Urgʻusiz qisqa [a] bilan tugagan otlarda koʻplik sonda uning oʻrnini urgʻusiz [i] egallaydi:

starga ‘koʻz’ - *stargi* ‘koʻzlar’

[əy] bilan tugagan otlar koʻplik sonda oʻz soʻnggi qismini oʻzgartirmaydilar: *kərkəy* ‘deraza’ – *kərkəy* ‘derazalar’

[i] bilan tugagan va mavhum tushuncha anglatgan otlarda koʻplik sonda [i] oʻrnini [əy] egallaydi:

bozi ‘oʻyin’ – *bozəy* ‘oʻyinlar’

Jonivorlar nomini anglatgan otlar koʻplik sonda [gāni] yoki [āni] qoʻshimchasini oladi:

piři ‘mushuk’ - *piřiḡāni* ‘mushuklar’

[e] bilan tugagan va muzakkar jinsdagi otlardan tashkil topgan otlarda koʻplik sonda [e] oʻrnini [i] egallaydi:

malḡəre ‘dugona’ - *malḡəri* ‘dugonalar’

[e] ga tugagan tub otlar koʻplik sonda [āni] qoʻshimchasini oladi:

nāwe ‘kelin’ - *nāweāni* ‘kelinlar’

Choʻziq [ā] bilan tugagan otlarda koʻplik sonda [gāni], [wi] qoʻshimchalarini oladilar:

xwā ‘tomon’, ‘taraf’ - *xwāwi* ‘tomonlar’, ‘taraflar’

mlā ‘bel’ - *mlāḡāni* ‘bellar’

[o] bilan tugagan otlar koʻplik sonda [gāni] qoʻshimchasini oladilar:

bizo ‘maymun’ - *bizogāni* ‘maymunlar’

Undosh tovushga tugagan otlar ko‘plik sonda [i] qo‘shimchasini oladi:

wraǰ‘kun’ - wraǰi ‘kunlar’

Ʒ [ayn] bilan tugagan va oldida [i], [o], [a], [u] unli tovushlari kelgan [h]ga tugovchi so‘zlar ko‘plik sonda [āni] va [āt] qo‘shimchalari ishtirokidagi ikki xil shaklga ega bo‘lishlari mumkin:

tafri(h) ‘hordiq’ - tafrigāni ‘hordiq’lar’

‘itilā’ ‘xabar’ - ‘itilāāt’ ‘xabarlar’

Yaqin qarindoshlarni bildirgan otlar ishtirokida ko‘plik turli usullar yordamida anglatiladi:

mor ona - mendi, mandi ‘onalar’

zoy ‘o‘g‘il’ - zāmān ‘o‘g‘illar’

Otlarda kelishik kategoriyasi

Pushtu tilida uch kelishik mavjud. Bosh, vositali va chaqirish kelishiklari.

Bosh kelishik - otning hech qanday qo‘shimchasiz shakli o‘zbek tilidagi bosh kelishikka to‘g‘ri keladi.

Vositali kelishik - mustaqil holda o‘tgan zamon (ergativ qurilish)da egani ifodalash uchun ishlatiladi. Qolgan barcha holatlarda vositali kelishik predlog (old qo‘shimcha) va poslelog (ort qo‘shimcha) bilan birgaligda kelishik munosabatlarini ifodalaydi.

Chaqiruv kelishigi bilan odatda *Ay!*, *E!*, *Ey!* undov so‘zlari ishlatiladi. Chaqiruv kelishigi pushtu tilida quyidagi usullar orqali yasaladi:

1) Undosh tovushga tugovchi muzakkar jinsidagi otlar qisqa [a] qo‘shimchasini qabul qiladi: *haləka!* ‘bolakay!’

2) [ay] diftongiga tugovchi otlar [ay] diftongi [iya]ga o‘zgaradi: *Ay sařiya!* ‘Ey, odam!’

3) [oy], [uy], [ay] diftonglariga tugovchi otlarga qisqa [a] qo‘shiladi: *Zoya!* ‘O‘g‘lim!’ *Xudāya!* ‘Xudo!’

4) *paštūn* kabi so‘zlarda qisqa [a] qabul qiladi: *Ay paštūna!* ‘Ey, pushtun!’

5) [ə], [o], [u], [ā] tovushlariga tugovchi muzakkar jinsidagi otlar hech qanday o'zgarishsiz qoladi: *Ay ānā!* 'Ey, buvi!', *E zřə!* 'E, yurak!'

6) Undosh tovushga tugovchi muannas jinsiga mansub otlar [i] qabul qiladi: *Mori!* 'Ona!'

7) Qisqa [a] unlisiga tugovchi muannas jinsiga mansub otlar urg'uga ko'ra [i] yoki [e] qabul qiladi: *Ay šəži!* 'Ey, ayol!'

8) [əy]ga tugovchi so'zlar, qisqa [a] qabul qilishi mumkin: *Spoğməya!* 'Oy!', *Ay njələya!* 'Ey, qiz!'

9) Chaqiruv kelishigining ko'plik son shakli vositali kelishikning ko'plik soniga muvofiq keladi: *Grāno awredūnko!* 'Hurmatli tinglovchilar!'

Otlarning yasashi

Pushtu tilida otlar turli usullar: morfologik (suffiksali uslub), sintaktik yoki leksik-sintaktik uslub yordamida yasaladi.

Suffiksatsiya usul yordamida ot yasashi

Pushtu tilida ko'plab ot yasovchi suffikslar mavjud bo'lib, ular orasida ko'p hamda kam qo'llanadiganlari bor. Quyidagi suffikslar eng ko'p ishlatiladi:

wāl: kəliwāl 'qishloqlik' *kəlay* 'qishloq' so'zidan

nariwāl 'yerlik' *narəy* 'dunyo' so'zidan

xor: badixor 'poraxo'r' *badi* 'pora' so'zidan

ay: kābulay 'qobullik' *kābul* 'Kobul' so'zidan

tob: saritob 'insoniylik' *saray* 'inson' so'zidan

zalmi tob "yoshlik" *zalmay* "yosh" so'zidan

i: wrori 'birodarlik' *wror* 'birodar' so'zidan

dosti 'do'stlik' *dost* 'do'st' so'zidan

tyā: roṣtyā 'sog'lik' *roṣ* 'sog' so'zidan

zřəwartyā 'jasurlik' *zřəwar* 'jasur' so'zidan

wālay: uğdwālay 'uzunlik' *uğd* 'uzun' so'zidan

klakwālay 'qattqlik' *klak* 'qattiq' so'zidan

əšt: jořəšt 'moslama' 'tuzilma' *joř* 'yasalgan' so'zidan

grānəšt 'qimmatlik' *grān* 'qimmat' so'zidan

žay: šowənžay ‘maktab’ *šowəna* ‘ta’lim’ so‘zidan
tūn: nəndārtūn ‘ko‘rgazma’ *nəndāra* ‘tomosha’ so‘zidan
kitābtūn ‘kutubxona’ *kitāb* ‘kitob’ so‘zidan
əna: wahəna ‘zarba’ *wahəl* ‘urmoq’ so‘zidan
sātəna ‘qo‘riqlash’ *sātəl* ‘qo‘riqlamoq’, ‘saqlamoq’ so‘zidan
galwi: pejəndgalwi ‘tanishish’ *pejəndəl* ‘tanimiq’ so‘zidan
oy: wayəndoy ‘notiq’, ‘voiz’ *wayəl* ‘gapirmoq’ so‘zidan
ūn: badlūn ‘almashish’ *badlawəl* ‘almashmoq’, *lamsūn*
 ‘provokatsiya’, ‘kutqu solmoq’ *lamsawəl* ‘qutqu solmoq’, ‘g‘ulg‘ula
 solmoq’ so‘zidan
či: nəndārči ‘tomoshabin’ *nəndāra* ‘tomosha’ so‘zidan
wān: gād’iwān ‘aravakash’ *gād’ay* arava so‘zidan
mar: dāramār ‘bosqinchi’, ‘bandit’ *dāra* ‘bosqin’ so‘zidan
zay: yusufzay "yusufzay" *yusuf* (pushtun qabilasi nomi) so‘zidan
istān: mājaristān "Vengriya" *mājar* "vengr, mojar" so‘zidan
āk: žbešāk ‘ekspluatatsiya’, *škelāk* ‘kolonializm’, *cəšāk* ‘ichimlik’
wāla: dukānwāla ‘do‘konchi’, *dukān* ‘do‘kon’ so‘zidan.

So‘z qo‘shib so‘z yasash

Barcha murakkab so‘zlar o‘z tarkibidagi qismlarning ma’no munosabatlariga ko‘ra ikki turga: ijodiy va atributiv turlarga bo‘linadi.

Ijodiy tur: har ikki tarkibiy qismi bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan murakkab so‘zlar. Bu kabi murakkab so‘zlar ikki mustaqil so‘zning ham [o], [aw] bog‘lovchilari bilan, ham ularsiz birlashuvi yo‘li bilan yasalishi mumkin: *kārxāna* ‘korxona’, *nāstawalāra* ‘muloqot’, *rākrawarkra* ‘ayirboshlash’, ‘savdo’, *ša-o-xwā* ‘chor-atrof’, *mor aw plār* ‘ota-ona’, *špa aw wraž* ‘sutka’, ‘kechayu-kunduz, *tag aw rātag* ‘harakat’, *šnə aw zaryūna* ‘kamalak’.

Atributiv tur: bunday murakkab so‘zlarda dastlabki element odatda ikkinchisiga izoh berib, uni to‘ldirib keladi, u ikkinchi komponentning aniqllovchisi kabi vazifa bajaradi: *torayāra* ‘ko‘k yo‘tal’, *srəzar* ‘oltin’, *bud’aytāl* ‘kamalak’, *bud’aykač* ‘Katta Ayiq’.

Yangi ma’noli otlar so‘z birikmasining leksikalizatsiyalashuvi yo‘li bilan ham yasalishi mumkin - ot + ot va [də] so‘z oldi qo‘shimchasi:

də xāwro tel ‘kerosin’, *də obo spay* ‘suvsar’.

Substantivatsiya

Substantivatsiya ot yasash usullaridan biridir. Sifat, sifatdosh va fe'ning noaniq shakllari ham otga aylanishi mumkin. Bunda ular o'zlarining dastlabgi belgilarini yo'qotish bilan birga otlarga xos bo'lgan barcha belgilarga ega bo'ladilar:

loy 'katta', 'katta odam', *loyān* 'katta odamlar', *kučnay* 'kichkina', 'bola', *kučniyān* 'bolalar', *likūnkay* 'yozuvchi', *joředəl* 'qurilish' va h.

Savollar

1. *Pushtu tilida ot so'z turkumi qaysi grammatik kategoriyalarga ega?*
2. *Pushtu tilidagi muzakkar otlarga qaysilar kiradi?*
3. *Pushtu tilidagi muannas otlarga qaysilar kiradi?*
4. *Pushtu tilida muzakkardan muannas yasaliş yo'llarini ko'rsating.*
5. *Pushtu ko'plik shaklini ifodalaydigan suffikslarni va usullarni ayting.*
6. *Pushtu tilidagi qaysi kategoriya o'zbek tilida mavjud emas?*

Sifat

Pushtu tilida sifatlar alohida morfologik belgilariga ega emas. Ular semantik va sintaktik vazifalariga ko'ra ajralib turadilar.

Jins (rod), son va kelishik hosil bo'lishi xususiyatlariga ko'ra pushtu tilidagi sifatlar bir necha guruhlarga bo'linadilar.

Kuchsiz sifatlar - deb birlik sondagi muannas jins shaklini urg'usiz qisqa [a] qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasaladigan sifatlarga aytilib, bunda muzakkar jinsning ko'plik sondagi shakli o'zgarmaydi, ya'ni birlik va ko'plik son shakllari o'zaro muvofiq keladi:

	Birlik	Ko'plik
m-r.j.	<i>tor</i> 'qora',	<i>tor</i>
m-s.j.	<i>tora</i>	<i>tori</i>
m-r.j.	<i>loy</i> 'katta'	<i>loy</i>
m-s.j.	<i>loya</i>	<i>loyi</i>

Kuchli sifatlar - deb birlik sondagi muannas jins shakli yasalişhida o‘zakdagi [o], [u] tovushlari o‘rnini urg‘uli qisqa [a] egallab, so‘z oxiriga urg‘uli qisqa [a] qo‘shiladigan sifatlarga aytiladi. Muzakkar jinsdagi ko‘plik son shaklini hosil qilishda unli [o] va [u] o‘rnini cho‘ziq [ā] unlisi egallab, so‘z oxiriga zvarakay [ə] qo‘shiladi:

	Birlik	Ko‘plik
m-r.j.	<i>prot</i> ‘yotgan’	<i>prātə</i>
m-s.j.	<i>prata</i>	<i>prate</i>

Oraliq sifatlar - deb ham kuchli, ham kuchsiz sifatlarning xususiyatlarini olgan sifatlarga aytiladi. Muannas jins shaklini hosil qilishda ular urg‘uli [a] qo‘shimchasini oladi va uning ichki unli tovushi o‘zgarmaydi. Muzakkar jins ko‘plik son shakli so‘z oxiriga urg‘uli zvarakay [ə] qo‘shimchasi qo‘shilishi orqali hosil qilinadi. Ichki [o], [u] unlilari almashmaydi:

	Birlik	Ko‘plik
m-r.j.	<i>uğd</i> ‘uzun’	<i>uğdə</i>
m-s.j.	<i>uğda</i>	<i>uğde</i>

Qisqargan sifatlar - deb shakllarini hosil qilishda unli tovushi tushib qoladigan sifatlarga aytiladi:

	Birlik	Ko‘plik
m-r.j.	<i>sur</i> ‘qizil’	<i>srə</i>
m-s.j.	<i>sra</i>	<i>sre</i>
m-r.j.	<i>trix</i> ‘sho‘r’	<i>tərxə</i>
m-s.j.	<i>tərxə</i>	<i>tərxə</i>

Urg‘uli [ay] diftongi bilan tugagan sifatlarning muannas jins shaklida [ay], [ey]ga o‘zgaradi, urg‘usiz [ay] esa [e]ga aylanadi:

	Birlik	Ko‘plik
m-r.j.	<i>kučnəy</i> ‘kichkina’	<i>kučni</i>
m-s.j.	<i>kučnəy</i>	<i>kučnəy</i>

m-r.j.	<i>nəway</i> ‘yangi’	<i>nəwi</i>
m-s.j.	<i>nəwe</i>	<i>nəwi</i>

[e]ga tugagan sifatlar muannas jins shaklini hosil qilishda [e] o‘mini [a]ga almashtiradilar:

	Birlik	Ko‘plik
m-r.j.	<i>šə</i> ‘yaxshi’	<i>šə</i>
m-s.j.	<i>ša</i>	<i>še</i>

[a], [ā], [e], [i], [o], [u] bilan tugagan sifatlar barcha shakllarni hosil qilishda ham o‘zgarmaydilar:

	Birlik	Ko‘plik
m-r.j.	<i>šāyista</i> ‘chiroyli’	<i>šāyista</i>
m-s.j.	<i>šāyista</i>	<i>šāyista</i>

Pushtu tilida sifat darajalari

Pushtu tilida sifatlar morfologik ifodalangan qiyosiy daraja shakllariga ega emas. Qiyosiy va orttirma darajalar tahliliy usul yordamida ifodalanadi.

Qiyosiy daraja. Sifatning o‘zi ijobiy darajada bo‘lib, boshqa buyum bilan u yoki bu xususiyatga egaligi tufayli qiyoslanayotgan buyum esa *tər* yoki *də* so‘z oldi va *cxa* so‘z orqa qo‘shimchalari bilan vositali kelishikda keladi:

Zmā sūr qalam sta tər šnə qalam ugd dəy ‘Mening qizil ruchkam sening ko‘k ruchkangga nisbatan uzunroq’.

Orttirma daraja: sifat ijobiy darajada bo‘lib, gap tarkibiga nisbiy kelishikdagi *tər* yoki *də* so‘z oldi va *cxa* so‘z orqa qo‘shimchasi bilan *tol* so‘zi (‘barcha’, ‘hamma’) kiritiladi: *Amad tər tolo məšr dəy* ‘Ahmad eng katta’.

Orttirma daraja boshqa usul bilan ham ifodalanishi mumkin: oddiy darajadagi sifatdan avval *də* yoki *lə* old qo‘shimchali ko‘plik son vositali kelishikdagi xuddi shu sifat keladi: *də šo šə dəy* ‘eng yaxshi’.

Sifatlarning ot soʻz turkumiga oʻtishi

Sifatlarning substantivatsiyalashuvi hodisasi pushtu tilida ancha keng tarqalgan. Ot soʻz turkumiga oʻtgan sifatlar buyum belgisi bildirish ahamiyatini yoʻqotib, buyum maʼnosiga ega boʻladi.

Substansiyalashgan sifatlar jinslarga koʻra oʻzgarmay qoʻyadilar va tugallanishi yoki maʼnosiga koʻra bittayu-bitta muayyan jinsiga ega boʻladi.

Ular gapda ega, toʻldiruvchi yoki murakkab ot-kesimning ot qismi sifatida kelishi mumkin. Baʼzi sifatlar deyarli butunlay ot soʻz turkumi tarkibiga qoʻshilib ketgan: *bandiyān* ‘asirlar’, ‘bandilar’ va h.

Sifatlarda jins, son va kelishik kategoriyasi

Sifatlar, gapda aniqlovchi vazifasida kela turib, aniqlanmish bilan jins, son va kelishikda moslashadilar. Shunday qilib, sifatlarning jins, son va kelishigi ular tegishli boʻlgan otning shu kabi kategoriyalariga bogʻliq boʻladi. Sifatlarning bu kategoriyalari mustaqil koʻrinishga ega emas: *tor mez* ‘qora stol’, *tora taxta* ‘qora taxta’, *tori taxte* ‘qora taxtalar’.

Vositali kelishikdagi sifatlarning hosil boʻlish qoidalari vositali kelishikdagi otlarning yasash qoidalariga muvofiq keladi (oʻzgarmas sifatlar bundan mustasno). Koʻplik sondagi sifatlarning vositali kelishigi ham [o]ga tugaydi: *Də toro taxto uḡdwālay* ‘Qora taxtalarning uzunligi’.

Sifatlarning yasalishi

Suffiks (orqa qoʻshimcha) lar yordamida hosil boʻlish eng sermahsul sifat yasovchi qoʻshimchalar quyidagilardir:

<i>i:</i>	<i>hukumati</i> ‘hukumatga oid’, <i>hukumat</i> ‘hukumat’
soʻzidan,	
	<i>paudzi</i> ‘harbiy’, <i>paudz</i> ‘qoʻshin’ soʻzidan.
<i>nay:</i>	<i>osanay</i> ‘bugungi’ <i>os</i> ‘hozir’ soʻzidan
	<i>koranay</i> ‘uyga oid’ <i>kor</i> ‘uy’ soʻzidan
<i>iz: zay:</i>	<i>arxiz</i> ‘yonlama’, <i>arx</i> ‘yon’ soʻzidan
	<i>sulayiz</i> ‘tinch’, <i>sula</i> ‘tinchlik’ soʻzidan

	<i>dwasaridzay motar</i> ‘ikki o‘rinli avtomobil’,
<i>nāk:</i>	<i>xatarnak</i> ‘xatarli’ <i>xatar</i> ‘xatar’ so‘zidan
<i>jən:</i>	<i>namjən</i> ‘namgar’ <i>nam</i> ‘nam’ so‘zidan <i>oblən</i> ‘suvli’
<i>obə</i> ‘suv’ so‘zidan	
<i>m(ə)an: mand:</i>	<i>sudman</i> "foydali" <i>sud</i> "foyda" so‘zidan
	<i>andišmən</i> ‘bezovtalangan’ <i>andišna</i> ‘bezovtalik’
so‘zidan,	
	<i>pamən</i> ‘qo‘tir bosgan’ <i>pam</i> ‘qo‘tir’ so‘zidan
<i>war:</i>	<i>zřəwar</i> ‘botir’, ‘qo‘rqmas’ <i>zřə</i> ‘yurak’ so‘zidan
	<i>dabarin</i> ‘toshloq’ <i>dabara</i> ‘tosh’ so‘zidan
<i>in:</i>	<i>wrešmin</i> ‘shoyili’ <i>wrešm</i> ‘shoyi’ so‘zidan
<i>yālay:</i>	<i>nangiyālay</i> ‘vijdonli’ <i>nang</i> ‘vijdon’ so‘zidan
<i>āna:</i>	<i>dustāna</i> ‘do‘stona’ <i>dust</i> ‘do‘st’ so‘zidan
	<i>samimāna</i> ‘samimiy’ <i>samim</i> ‘samimiy’ so‘zidan
<i>dār:</i>	ushbu suffiks ham sifat, ham ot yasashda ishlatiladi:
	<i>mewadār</i> ‘mevali’ <i>mewa</i> ‘meva’ so‘zidan
<i>bəxən:</i>	<i>sūrbəxən</i> ‘qizg‘ish’ <i>sūr</i> ‘qizil’ so‘zidan
<i>ū:</i>	<i>britū</i> ‘mo‘ylovdor’ <i>brit</i> ‘mo‘ylov’ so‘zidan
<i>ənd:</i>	<i>swažənd</i> ‘kuydiruvchan’, ‘qaynoq’ <i>swəl</i> ‘kuydirmok’,
‘yonmoq’	

Prefikslar hamda so‘z qo‘shilishi yordamida sifat yasash

Sifat yasash uchun *nā* va *be* prefikslari qo‘llanadi. *nā* prefiksi odatda undosh tovush bilan tugagan otlarga qo‘shilib, unga qisqa [a] qo‘shiladi: *nākāra* ‘dangasa’, *nājořa* ‘kasal’; *be* prefiksi otlar bilan birga qo‘llanadi va ushbu ot anglatgan narsa yo‘qligini bildirgan sifat hosil qiladi: *bekora* ‘uysiz’, *be‘aqla* ‘aqlsiz’, ‘beaql’. Undosh tovushga tugagan *be* qo‘shimchasini olgan otlar qisqa [a] tovushiga tugaydi.

Sifatlar prefiks sifatida *kam* va *ham* qo‘shimchalari ishtirokida ham yasalishi mumkin. *kam* qo‘shimchasi u qo‘shilib kelgan so‘z anglatgan narsaning ozligini bildirsa, *ham* birgalik, birvaqtlilikni anglatadi: *kam‘aqla* ‘ahmoq’, ‘kamaql’, *hamşakla* ‘bir xil’. Undosh tovush bilan tugagan va *kam* hamda *ham* qo‘shimchalarini olgan otlar so‘z oxirida qisqa [a] tovushini olishlari mumkin.

Pushtu tilida sifatlar aralash yo‘l bilan ham (so‘z qo‘shilishi + qo‘shimcha (suffiks) olish) yasalishi mumkin: sifat va otdan, ot va sifatdan, son va otdan, ot va hozirgi zamon sifatdoshidan, ot va otdan; so‘zning oxirgi qismi odatda [ay] qo‘shimchasi bilan tugaydi: *spin-stərgay* ‘bezbet’, ‘betga chopar’, *sarpəṭay* ‘yopiq’, *nūmwṛəkay* ‘unutilgan’, ‘noma’lum’, *yawlāsay* ‘bir qo‘lli’, *sūlayūštūnkay* ‘tinchliksevar’, *azādibaxšūnkay* ‘haloskorona’, *sūladust* utinchliksevaru.

Pushtu tilida yuqorida nomi keltirilgan usullardan tashqari boshqa so‘z hosil qilish usullari ham bor: *nimkaš* ‘yarim ochiq’, *sarkaš* ‘o‘jar, qaysar’, *ṡamžapəlay* ‘ma’yus’ va h.

Savollar

1. *Pushtun tilshunoslari sifatlarni nechta turga ajratadilar?*
2. *Gapda sifatlar qaysi vazifalarda keladi?*
3. *Pushtu tilida sifatlar nechta darajalarga ega?*
4. *Pushtu tilida sifatlar qaysi usullar bilan yasaladi?*

Son

Pushtu tilida son so‘z turkumi miqdor va tartib sonlarga bo‘linadi.

Miqdor sonlar pushtu tilida jins toifasiga ega emas va jinslarga ajralmaydi (g‘arbiy lahjasidagi *yaw* ‘bir’ va *dwa* ‘ikki’ sonlaridan tashqari).

Vositali kelishikda miqdor sonlar, *dwa* ‘ikki’ sonidan boshlab [o] tovushiga tugaydi, ya’ni ular ko‘plik sondagi ot bo‘lib keladilar. Pushtu tilidagi sonlarni sodda: *yaw* ‘bir’, *calor* ‘to‘rt’, tarkibli: *pinžəlas* ‘o‘n besh’, *atəlas* ‘o‘n sakkiz’ va murakkab: *dwa sawa aw pinžəderš* ‘ikki yuz o‘ttiz besh’ sonlarga ajratish mumkin.

Inkor gaplarda ot bilan birga bevosita to‘ldiruvchi vazifasida kelgan sonlar rus tilidagi kabi qaratqich kelishikda emas, balki vositali kelishikda keladilar: *Zə dwa qalama na larəm* ‘Menda ikkita ruchka yo‘q’.

Muzakkar jinsga oid bo‘lib, undosh tovushga tugagan hamda ko‘plik soni qo‘shimchasi [ūna], [ān] o‘rniga aniq-miqdor soni va noaniq-miqdor co bilan birga kelgan otlar qisqa [a] tovushini olishlari mumkin.

Miqdor sonlar bilan birga kelgan otlar, *dwa* ‘ikki’ dan boshlab, ko‘plik son vositali kelishikda qo‘llanadilar, undosh tovushga tugagan muzakkar jinsga mansub bo‘lgan otlar esa qisqa [a] tovushini olishlari mumkin: *dwa kitāba* ‘ikkita kitob’, *owə mezūna* ‘ettita stol’.

Miqdor sonlarning turlanishi

Vositali kelishikdagi *yaw*, *yawa* ‘bir’ sonlari muzakkar jins uchun *yawə* hamda muannas jins uchun *yawe* shakliga ega. Qolgan sonlar esa vositali kelishikda [o] tovushi bilan tugaydilar.

Bosh kelishik	Vositali kelishik
<i>Dwa</i> ‘ikki’	<i>Dwo</i>
<i>Dwe</i> ‘ikki’ (m-s.j.)	<i>Dwo</i>
<i>Dre</i> ‘uch’	<i>Dro</i>
<i>Şəl</i> ‘yigirma’	<i>Şəlo</i>
<i>Dwāra</i> ‘ikkala’	<i>Dwāro</i>
<i>Dwāri</i> ‘ikkala’ (m-s.j.)	<i>Dwāro</i>

las, *şəl*, *səl*, *zər*, *lak*, *kror*, *milyūn* so‘zlari ham son, shu bilan birga xisob otlari ma’nosiga egadirlar. Ular ot kabi son shakliga ega va muayyan jins toifasiga tegishlidirlar. Ko‘plik son shaklida ushbu so‘zlar hamisha hisob otlari ma’nosida ishlatiladilar: *lasūna* ‘onlab’, *şəlūna* ‘yigirmatalab’, *səlūna* ‘yuzlab’, *lakūna* ‘yuzminglab’ va h.

Ko‘plik shaklida *şəl*, *zər*, *səl* so‘zlari shuningdek -*gūna* suffiksini olishi mumkin: *şəlgūna*, *zərgūna*, *səlgūna*. *co* olmoshi hamda *dwa* dan boshlangan sonlar bilan kelgan *şəl*, *səl*, *zər* va h. lar qisqa urg‘usiz [a] tovushiga tugaydi. Shu bilan birga *şəl* muannas jinsga oid so‘z sifatida ham ishlatiladi: *Co şəli?* ‘Yigirmatalik nechta?’

Ikkidan boshlab barcha sonlar bilan *şəl* o‘rniga *saw* ishlatiladi: *co sawa* ‘bir necha yuz’, *calor sawa* ‘to‘rt yuz’.

Miqdor sonlarning yozilishi va talaffuzi

bir – <i>yaw</i>	yigirma sakkiz – <i>atəwişt</i>
ikki – <i>dwa</i>	yigirma to‘qqiz – <i>nəhwişt</i>
uch – <i>dre</i>	O‘ttiz – <i>derş</i>
to‘rt – <i>calor</i>	qirq – <i>calwəşt</i>

besht – <i>pinža</i>	ellik – <i>pinžos</i>
olti – <i>špağ</i>	oltmish – <i>špetə</i>
yetti – <i>owə</i>	yetmish – <i>awyā</i>
sakkiz – <i>atə</i>	sakson – <i>atyā</i>
to‘qqiz – <i>nəh</i>	to‘qson – <i>nəwi</i>
o‘n – <i>las</i>	yuz – <i>səl</i>
o‘n bir – <i>yawolas</i>	bir yuz bir – <i>yaw səlo yaw</i>
o‘n ikki – <i>dwolas (dolas)</i>	bir yuz o‘n – <i>yaw səlo las</i>
o‘n uch – <i>dyārlas (dyarlas)</i>	bir yuz o‘ttiz yetti – <i>yaw səlo owəderš</i>
o‘n to‘rt – <i>cwārlas (cwarlas)</i>	ikki yuz – <i>dwa sawa</i>
o‘n besh – <i>pinžəlas</i>	ikki yuz qirq sakkiz – <i>dwa sawa aw atə calwəšt</i>
o‘n olti – <i>špārlas (špāras)</i>	uch yuz – <i>dre sawa</i>
o‘n yetti – <i>owəlas</i>	uch yuzu yetmish to‘rt – <i>dre sawa aw calor owyā</i>
o‘n sakkiz – <i>atəlas</i>	to‘rt yuz – <i>calor sawə</i>
o‘n to‘qqiz – <i>nulas (nunas)</i>	besht yuz – <i>pinža sawə</i>
yigirma – <i>şəl</i>	olti yuz – <i>špağ sawə</i>
yigirma bir – <i>yawwišt</i>	yetti yuz – <i>owə sawə</i>
yigirma ikki – <i>dwawišt</i>	sakkiz yuz – <i>atə sawa</i>
yigirma uch – <i>dərwišt</i>	to‘qqiz yuz – <i>nəh sawə</i>
yigirma to‘rt – <i>calorwišt</i>	ming – <i>zər</i>
yigirma besh – <i>pinžəwišt</i>	bir ming to‘qqiz yuz ellik – <i>yaw zərə aw nəh sawa pinžos</i>
yigirma olti – <i>spuğwišt</i>	O‘n ming – <i>las zərə</i>
yigirma yetti – <i>owəwišt</i>	million – <i>milyūn</i>

Yaw soni ko‘pincha ‘kimdir’, ‘allakim’ noaniq olmoshi ma’nosida qo‘llanadi: *Yaw sařay pər xrə spor wū* ‘Bir odam eshakda ketayotgan edi’.

Tartib sonlar

Tartib sonlar pushtu tilida muzakkar jins uchun miqdor sonlarga [əm] va muannas jins uchun esa [əma] suffiksi qo‘shilishi orqali hosil bo‘ladi. Ular kuchsiz sifat kabi turlanadilar.

yaw ‘bir’ va yawa ‘bitta’gacha bo‘lgan tartib sonlar mustaqil shakllariga ega: *lūmṛay* ‘birinchi’, *lūmṛəy* ‘birinchi’ (m-s.j.). *dwa* va *calor*dan keyingi tartib raqamlar ikkitadan shaklga egalar: *dwahəm*, *dwayəm*, *calarəm*, *calorəm*.

Ba’zi tartib sonlarning yozilishi va talaffuzi

<i>lumṛay</i>	birinchi	<i>calarəm</i>	to‘rtinchi
<i>lumṛəy</i>	birinchi (m-s.j.)	<i>Calarəma</i>	to‘rtinchi (m-s.j.)
<i>ṛumbay</i>	birinchi	<i>calorəm</i>	to‘rtinchi
<i>ṛumbəy</i>	birinchi (m-s.j.)	<i>Calorəma</i>	to‘rtinchi (m-s.j.)
<i>awwal</i>	birinchi	<i>awyāyəm</i>	yetmishinchi
<i>awwala</i>	birinchi (m-s.j.)	<i>atyāyəm</i>	saksoninchi
<i>dwahəm</i>	ikkinchi	<i>nwiyəm</i>	to‘qsoninchi
<i>dwahəma</i>	ikkinchi (m-s.j.)	<i>sələm</i>	yuzinchi
<i>dwayəm</i>	ikkinchi	<i>dwasawəm</i>	ikki yuzinchi
<i>dwayəma</i>	ikkinchi (m-s.j.)	<i>zərəm</i>	minginchi
<i>dreyəm</i>	uchinchi	<i>las zərəm</i>	o‘n miningchi
<i>dreyəma</i>	uchinchi (m-s.j.)	<i>milyūnəm</i>	miliyoninchi

Noaniq sonlar

Noaniq sonlar noaniq miqdorni anglatadi. *co* ‘qancha’, ‘bir qancha’, *comra* ‘qancha’, *domra* ‘necha’, *hayomra* ‘shuncha’, *cə* ‘bir necha’ soʻzlarni ushbu son toifasiga kiritish mumkin. Noaniq sonlar vositali kelishikda oʻzgarmaydilar. Noaniq sonlar bilan qoʻllangan otlar bevosita kelishikda qoʻllanadilar.

Kasr sonlar

Kasr sonlar pushtu tilida odatda *barxa* ‘qism’ soʻzi yordamida hosil boʻladi: *pinžəma barxa* $1/5$, *calweštəma barxa* $1/40$, *calor pinžəmi* $4/5$ (*barxa* soʻzi tushib qoladi). Kasr sonlarni ifodalash uchun shuningdek *nim* ‘yarim’, *bāndi* ‘koʻp’, ‘ortiq’; *kam* ‘kam’ kabi soʻzlar qoʻllanadi: *pāu bāndi dwa* $2\frac{1}{4}$; *pāu kam yaw čārak* $3/4$; *pāu bāndi yaw čārak* $1\frac{1}{4}$; *dwa nim pāwa* $2\frac{1}{2}$; *yaw nim pāu* $1\frac{1}{2}$; *pāu* $1/4$; *nim* $1/2$; *dre pāwa* $3/4$; *pāu kam dwa* $1\frac{3}{4}$; *dwa nim* $2\frac{1}{2}$.

Sanoq sonlarning *pə* soʻz oldi qoʻshimchasi bilan kelishi

yawdan keyin kelgan *pə* soʻz oldi qoʻshimchali sanoq sonlar “muayyan (son bildirgan) marotaba” maʼnosini anglatadi, masalan: *yaw pə dwa* ‘ikki marotaba’; *yaw pə dre* ‘uch marotaba’; *yaw pə las* ‘oʻn marotaba’; *yaw pə səla* ‘yuz marotaba’.

pə soʻz oldi qoʻshimcha bilan kelgan sanoq sonlar “qanchaga” degan maʼno bildiradi: *yaw pə yaw* ‘birga bir’, *dre pə šəl* ‘yigirmaga uchta’, *las pə las* ‘oʻnga oʻn’, *Yaw pə calor badlawəm* ‘Birini toʻrttaga almashtiraman’ degan maʼnoni anglatadi.

Bitta son *pə* soʻz oldi qoʻshimchasi bilan takrorlanganida bu tasdiqni, gap maʼnosini kuchaytirishni anglatadi: *yaw pə yaw rāyəy* ‘u bitta oʻzi keldi’, *Ahmad aw Mahmud dwa pə dwa nāst wū* ‘Ahmad va Mahmud (ikkalasi) yonma-yon oʻtirgandilar’; *dre pə dre wlāřəl* ‘uchchalasi ham ketdi’, ‘uchovlashib ketdilar’.

pə old qoʻshimchasini olgan sanoq sonlar ‘qancha’, ‘necha pulga’ maʼnosini bildirishi ham mumkin: *pə yaw zər rūpəy* ‘ming rupiyaga’; *Pə calor sawa rūpəy ye axista da* ‘U shu narsani 400 rupiyaga sotib oldi.

pə soʻz oldi qoʻshimchasi shuningdek, vaqtni ifodalashda ham ishlatiladi: *pə calor bajo* ‘soat toʻrtida’, *pə yaw sāʻat* (ki) ‘bir soat ichida’, *pə las sāʻata ki* ‘oʻn soat davomida’. Shuni ham qayd etish kerakki, keltirilgan misollardagi *pə* old qoʻshimchali sonlar bosh kelishikda qoladilar.

Sonlar *pə* old qoʻshimchasisiz takrorlanganida bunday jumla “taqsimlash” maʼnosiga ega boʻladi: *yaw yaw* ‘bittadan’, *dre dre* ‘uchtadan’, *Də haləkāno ta dwa dwa kitābūna warkřa* ‘Bu bolalarga ikkitadan kitob ber’.

žal ‘marta’, ‘gal’ soʻzi ishtirokidagi sanoq sonlar: *Dre žala calor dwolas* (kegi) ‘Uch marta toʻrt oʻn ikkiga teng’.

Numerativlar

Pushtu tilida turli buyumlar uchun tegishli numerativlar (sanoq soʻzlar) mavjud: *tan*, *kas* ‘shaxs’, *sar* ‘bosh’, *dāna* ‘dona’, *jild* ‘dona’, ‘jild’, ‘nusxa’, *taxta* ‘dona’, ‘varaqa’, *tan* ‘dona’, ‘boʻlak’, *bāb* (bino, mashinalarni sanash uchun), *toʻta* ‘boʻlak’, ‘qism’, *pāya* ‘dona’ (mashina, uskunalar, mebelni sanash uchun), *joʻra* ‘juft’, *darjan* ‘oʻn ikki dona’, *kulča* “dona”, ‘boʻlak’, *arāda* (avtomobillar va h.larni sanash uchun), *tāka* (kiyim bosh, roʻmollarni sanash uchun) *tūp* ‘toʻp’ (manufaktura mollarini hisoblash uchun), *dast* (kostyumlarni sanash uchun), *tika* (metall idishlarni sanash uchun), *mil* (miltiqlarni sanash uchun), *dwa tana saři* ‘ikki erkak kishi’, *dre sara γwayān* ‘uch bosh buqa’.

Foizlarning ifodalanishi

Pushtu tilida foizlarni ifodalash uchun *pə* soʻz oldi qoʻshimchasi, hamda *ki* soʻz orqa qoʻshimchasini olgan *səl* ‘yuz’ soni ishlatiladi: *pə səlo ki las* 10 %; *pə səlo ki calwešt* 40 %.

Savollar

1. *Pushtu tilida sonlar necha va qanday guruhga boʻlinadi?*
2. *Pushtu tilda sonlar oʻz tuzilishiga koʻra qaysi turlarga boʻlinadi?*

3. *Numerativlar nima uchun ishlatiladi?*
4. *Pushtu tilida kasr sonlar qanday qilib ifodalanadi?*
5. *Sonlar gapda qaysi vazifasida keladi?*
6. *Tartib son sonning boshqa turlaridan nima bilan farqlanadi?*
7. *Tartib sonlar qaysi soʻz turkumiga yaqindir?*

Olmosh

Pushtu tilidagi olmoshlar boshqa soʻzlar bilan aloqasi hamda semantikasiga bogʻliq ravishda quyidagi guruhlariga boʻlish mumkin.

1. Ot - olmoshlar: *zə* "men", *tə* "sen", *mūnğ* 'biz', *cə* 'nima', *haya* 'u' va h.
2. Sifat - olmoshlar: *xpəl* 'oʻz', *tol* 'hamma', 'barcha'.
3. Enklitik olmoshlar: *mi* - I shaxs, bir. son uchun, *di* - II shaxs bir. son, *mū* - I shaxs koʻp. son, *mo* - II shaxs koʻp. son, *ye* - III shaxs bir. va koʻp. son.
4. Shaxsiy - yoʻllovchi olmoshlar: *rā* - I shaxs uchun, *dar* - II shaxs uchun, *war* - III shaxs uchun.
5. Son - olmoshlar: *comra* - 'qancha, necha', *cona* 'qancha', 'necha', *dona* 'shuncha', *dayomra* 'shuncha' va h.
6. Ravish - olmoshlar: *cənga* 'qanday, qanday qilib', *kəla* 'qachon'.

Olmoshlar maʼnosiga koʻra quyidagi guruhlariga boʻlinadi:

1. Kishilik olmoshlari: *zə* 'men', *tə* 'sen', *day* 'u' (m-r.j.), *dā* 'u' (m-s.j.), *mūnğ* 'biz', *tāsi*, *tāsū* "siz", *dūy*, *hayoy* 'ular';
2. Egalik olmoshlari: *zmā* "mening", *stā* "sening", *dəda* 'uning' (m-r.j.), *dəde* 'uning' (m-s.j.), *zmūnğ* 'bizning', *stāsi* "sizning", *dədūy* 'ularning';
3. Oʻzlik olmoshi: *xpəl* 'oʻz';
4. Noaniqlik-soʻroq olmoshlar: *cok* 'kim', 'kimdir', *co* 'qancha', 'bir necha';
5. Koʻrsatish olmoshlari: *dā* 'mana bu', 'shu', *daya*, *daye* 'bu', 'shu', *haya* 'ana u', 'oʻsha', 'oʻshalar';
6. Inkor olmoshlari: *hicok* 'hech kim', *hic* "hech";

7. Aniqlovchi olmoshlar: *tol* ‘bari’, ‘hammasi’, *har* ‘har’ va h

Kishilik olmoshlari

	Birlik	Ko‘plik
I sh.	<i>zə</i> ‘men’	<i>mūnğ</i> ‘biz’
II sh.	<i>tə</i> ‘sen’	<i>tāsi</i> ‘siz’
III sh.	<i>day</i> ‘u’	<i>dūy</i> ‘ular’
	<i>dā</i> ‘u’ (m-s.j.)	<i>hayūy</i> ‘ular’ (m-s.j.)

Vositali kelishikda ko‘plikdagi olmoshlar o‘zgarmaydi lekin, birlikdagi shaxs olmoshlari quyidagi shakllarni oladilar:

I sh	<i>mā</i>
II sh.	<i>tā</i>
III sh.	<i>də</i>
	<i>de</i>

Kishilik olmoshlari I va II shaxs vositali kelishikdagi shakllari ko‘pincha vositali to‘ldiruvchi vazifasida ham keladi: *tə mā wine?* ‘Sen meni ko‘ryapsanmi?’.

Kishilik olmoshlari turli so‘z oldi va so‘z orti qo‘shimchalari bilan birga qo‘llanishi mumkin: *dadəcxa* ‘unda’, *zmūnğ sara* ‘biz bilan’, *māta* ‘menga’ va h.

Ko‘rsatish olmoshlari

dā, *daya* olmoshlari bevosita yaqinda joylashgan yoki biron-bir ma’lum narsani ko‘rsatadilar.

haya ko‘rsatish olmoshi so‘zlovchiga bevosita yaqinda bo‘lmagan, nisbatan uzoqda joylashgan biron-nimani ko‘rsatadi.

hūya olmoshi yordamida so‘zlovchidan ancha uzoqdagi buyum va narsalar ko‘rsatiladi.

Gapda ko‘rsatish olmoshlari aniqlovchi vazifasida kelib, aniqlanmish bilan jins, son va kelishikda moslashadilar: *Də hayo sařo nūmūna cə di?* ‘Anovi kishilarning ismi nima?’

So‘roq olmoshlari

cok? ‘kim?’, *co?* ‘qancha?’, ‘necha?’ noaniqlik-so‘roq olmoshlari jins va miqdorni ifodalaydigan alohida shakli bo‘lmay, vositali kelishikda *cok* olmoshi *čā* shakliga ega. *cə* noaniqlik-so‘roq olmoshi doimo muzakkar jinsning ko‘plik son shaklida qo‘llanadi. U vositali kelishiqda qo‘llanmaydi.

Gumon olmoshlari

plānay ‘qandaydir’, ‘qaysidir’, *žini* ‘ba’zi’ olmoshlari gapda aniqlovchi vazifasida qo‘llanishi mumkin. Ular shuningdek, substantivatsiyalashuvi (otlashuvi) mumkin: *Žini šə kawī žini bad* ‘Ba’zilar yaxshi ishlashsa, ba’zilar yomon’.

Belgilash olmoshlari

tol, *har*, *gərd* aniqlash olmoshlari aniqlovchi vazifasida kelib, sifatlarning qoidalariga binoan o‘zgaradilar: *tolā wraž* ‘kun bo‘yi’, *har yaw* ‘har kim’, *harcok* ‘har bir’, ‘har kim’, *hamāya* ‘xuddi o‘sha’ birikmalarini ham aniqlash olmoshlari tarkibiga kiritish mumkin.

Bo‘lishsizlik olmoshlari

Bo‘lishsizlik olmoshlari predmet yoki belgiga nisbatan inkor ma’nosini- bo‘lishsizlikni bildiradi. Bu olmoshlar ishtirok etan gapning kesimi bo‘lishsiz shkllda kelib, gap inkor gap hisoblanadi. Pushtu tilida bo‘lishsizlik olmoshlari, asosan, *hic* ‘hech’ so‘zidan iborat. Bu olmosh orqali yasalgan bir qator yasama olmoshlar, ravish va boshqa inkor ma’nosidagi so‘zlar mavjud: *hiccok* ‘hech kim’, *hicşay* ‘hech narsa’, *hickūm* ‘hech qaysi’ *hicyaw* ‘hech bir’ *hicwaxt* ‘hech vaqt’ va sh.k.

hic ‘hech’ so‘zi yakka qo‘llanganda, ko‘pincha fe’llar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi va ish-harakatning batamom inkorini bildiradi: *Nor hic na axlām* ‘Boshqa hech narsa olmayman’.

Egalik olmoshlari

Pushtu tilida *xpəl* egalik olmoshi kuchsiz sifatlar kabi turlanadi. Zamonaviy pushtu tilidagi *zmā*, *stā*, *zmūnğ*, *stāsi* kabi turg'un birikmalarni ham egalik olmoshlari qatoriga qo'shish mumkin.

Shuningdek olmoshsimon enklitikalar ham egalik olmoshlari sifatida ko'llanishi mumkin.

Enklitik olmoshlar

Pushtu tilida olmoshsimon enklitikalar jins kategoriyasiga, *ye* esa son kategoriyasiga ega emas. Ular vositali kelishikda ham o'zgarmaydilar. Olmoshsimon enklitikalar gapda odatda *bə* yuklamasidan keyin (agar u gap tarkibida bo'lsa) o'rin egallaydi. Ular gap boshida kela olmaydilar. Bu kabi olmoshlar ergativ konstruksiya (o'tgan zamon)da bevosita to'ldiruvchi, ega va egalik olmoshlari sifatida qo'llanadi. Ular odatda o'zlari tegishli bo'lgan so'zdan so'ng keladilar: *plār mi* 'mening otam'.

ye olmoshsimon enklitikasini *tər* va *pər* so'z oldi qo'shimchalari bilan qo'llashda qisqaruv hodisasi yuz berishi mumkin: *tər ye* - *tre*, *pər ye* - *pre*.

Kishilik-yo'nalish olmoshlari

Kishilik-yo'nalish olmoshlari faqat shaxs hamda harakat yo'nalishini ko'rsatadilar. Ular faqat so'z orti qo'shimchalari bilan qo'llanishi mumkin: *rāsara* 'men bilan', 'biz bilan'.

Pushtu tilida o'zlik va nisbiy olmoshlar yo'q. 'o'z' o'zlik olmoshi sifatida *žān* oti, hamda ba'zan *xpəl* 'o'z' olmoshi" *də žān dəpāra* 'o'zi uchun' ishlatiladi.

Pushtu tilida nisbiy olmoshlar o'rnida *če*, *cok če* bog'lovchilari va olmoshsimon enklitikalar bilan birga qo'llangan noaniqlik-so'roq olmoshlarining birikmasi qo'llanadi: *Haya kitāb če tā ye lwale zmā dəy* 'Sen o'qiyotgan kitob, meniki'. Gapning boshqa bo'laklari ham olmosh vazifasini bajarib kelishlari mumkin, masalan: *nūmwəray* 'zikr etilgan' va h.

Savollar

1. *Pushtun tilshunoslari olmoshlarning necha turini ajratadilar?*
2. *Olmoshlarning o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?*
3. *Olmoshlar nutqda qaysi so'z turkumi o'rnida keladi?*
4. *Gapda kishilik olmoshlari qaysi vazifada ishlatiladi?*
5. *Kishilik olmoshlarining qo'llanilishida qanaqa xususiyatlar bor?*
6. *Har ikkala tilda ko'rsatish olmoshlari nima uchun ishlatiladi?*
7. *So'roq olmoshlar nima uchun ishlatiladi?*
8. *Pushtu va o'zbek tillarida gapda so'roq olmoshlar qaysi vazifalarda keladi?*
9. *Belgilash olmoshlari nima uchun ishlatiladi? Gapda qaysi vazifada keladi?*
10. *Gumon olmoshlari nimaga ishora qiladi?*
11. *Pushtu tilidagi gumon olmoshlarni ayting.*
12. *O'zlik olmoshlari qaysi so'z turkumidan yasaladi?*
13. *O'zlik olmoshini qo'llashda qanday holatlarni kuzatish mumkin?*
14. *Har ikki tilda o'zlik olmoshi gapda qaysi gap bo'lagi vazifasida kela oladi?*
15. *Pushtu tilidagi birikuvchi olmoshlar o'zbek tilida qanday ifodalanadi?*

Fe'l

Pushtu tilidagi fe'llar uchun shaxs, tur (tarz-vid), zamon, mayl va nisbat grammatik kategoriyalari xos. Xususan, jins va son kategoriyalari fe'lga xos bo'lmasa ham, biroq uning ba'zi kategoriyalariga oid deb aytish mumkin.

Strukturasi va hosil bo'lish usuliga ko'ra pushtu tilidagi barcha fe'llarni tub (*tləl* 'bormoq'), hamda yasama (otdan hosil bo'lgan) (*teredəl* 'o'tmoq'), sodda (*likəl* 'yozmoq'), prefiksal (*kšewatəl* 'tushib kolmoq'), to'liq kirishmagan (*terawəl* 'o'tkazmoq'), to'liq kirishgan (*lāslik kawəl* 'imzolamoq').

Tub fe'llarning infinitiv (noaniq) shakllari odatda [əl] bilan, yasama fe'llar esa [edəl] va [awəl] qo'shimchalari bilan tugaydi. Pushtu tilida infinitiv otlashishi va III shaxs muzakkar jins ko'plik sonidagi ot vazifasida kelishi mumkin. U gapda ega, aniqllovchi, to'ldiruvchi, qo'shma ot-kesimning ot qismi bo'lib kelishi mumkin. Ob'ektga bo'lgan munosabatiga ko'ra barcha fe'llar o'timli va o'timsiz fe'llarga bo'linadi.

Pushtu tilida vositali to'ldiruvchi talab qilmaydigan, biroq o'timli fe'llar kabi tuslanadigan bir qator fe'llar mavjud: *Mā wuxandəl* 'Men kulib yubordim' va h.

Fe'l shakllarini hosil qilishda fe'l o'zaklari (hozirgi va o'tgan zamon), shaxs qo'shimchalari, prefikslar ishtirok etadilar. Hozirgi zamon o'zagining hosil bo'lish usuliga ko'ra barcha fe'llar to'g'ri va noto'g'ri fe'llarga ajraladi.

To'g'ri fe'llarda hozirgi zamon o'zagi [əl] qo'shimchasini olib tashlash yo'li bilan yasaladi: *tləl* 'bormoq', 'ketmoq' fe'lining hozirgi zamon o'zagi ž, *axistəl* 'olmoq' fe'lining hozirgi zamon o'zagi esa *axl* va h.

Fe'llarning yasalishi

Pushtu tilida ikki ko'makchi fe'l - *kawəl* 'qilmoq' hamda *kedəl* 'qilinmoq', 'aylanmoq' mavjud bo'lib, ular otlashgan, o'timli hamda o'timsiz, to'liq kirishgan va to'liq kirishmagan fe'llar uchun asos vazifasini bajaradilar. *kawəl* fe'lidan o'timli fe'llar, *kedəl*dan esa o'timsiz fe'llar hosil bo'ladi. Odatda sifatdan yasaladigan otlashgan fe'llar to'liq kirishmagan fe'l hisoblanib, bu holda *kawəl* va *kedəl* fe'llari boshlang'ich [k] tovushini tushirib qoldiradilar: *teredəl* 'o'tmoq', *spinawəl* 'oqlamoq'.

Fe'lning tugallangan turini hosil qilishda to'liq kirishmagan fe'l ot va yordamchi fe'llarga ajralib, yordamchi fe'l [wu] prefiksisiz tugallangan fe'l turida keladi: *Yawa wraž tera šwa* 'Bir kun o'tdi'.

Aytib o'tish kerakki, sifat unli [o], [u], [e], [i] tovushlarga tugaganida, fe'l yasashda ko'makchi fe'llardagi boshlang'ich [k] tovushi tushib qolmaydi: *nəjde kedəl* 'yaqinlashmoq', *liri kawəl* 'uzoqlashtirmoq'.

To'liq kirishmagan otlashgan fe'llar ba'zan otdan hosil qilinishi mumkin bo'lsa ham, biroq bu qoida barcha holatlar uchun amal

qilmaydi: *taswibawəl* ‘tasdiqlamoq’, *porawəl* ‘egallamoq’, ‘qarzga olmoq’ va h.

Odatda ot va ravishlardan to‘liq kirishadigan fe’llar hosil qilinadi: *lāslik kawəl* ‘imzolamoq’, *tərşā kedəl* ‘ortga qaytmoq’. To‘liq kirishadigan otlashgan fe’l shaklini hosil qilishda *kawəl*, *kedəl* [wu] prefiksisiz tugallangan fe’l turida keladi: *Tarūn ye lāslik kər* ‘Ular shartnomani imzoladilar’, *Paužūna tərşā şwəl* ‘Qo‘shinlar chekindilar’.

Pushtu tilida ko‘pgina o‘timli hamda o‘timsiz fe’llarning hozirgi zamon shakli o‘zagidan, shuningdek ba’zi o‘tgan zamon fe’llari o‘zaklaridan [awəl] qo‘shimchasi yordamida o‘timli fe’llar hosil qilinadi. Ulardan ba’zilari xohish – istakni, undovni anglatib keladi: *āyūstəl* ‘kiymoq’, *āyūndawəl* ‘kiydirmoq’, *kšenastəl* ‘o‘tirmoq’, *kšenawəl* ‘o‘tirg‘izmoq’, *ālwtəl* ‘uchmoq’, *ālwtawəl* ‘uchirmoq’.

Pushtu tilida *kawəl* va *kedəl* fe’llari ishtirokida anchagina fe’lli frazeologik birikmalar qo‘llanib, ular muayyan leksik ma’no hosil qiladilar, masalan: *kār kawəl* ‘ishlamoq’ va h. Bu kabi hollarda *kawəl* mustaqil ravishda qo‘llanadi. Bunday so‘z birikmalarini to‘liq kirishadigan otlashadigan fe’llar bilan adashtirmaslik kerak.

Pushtu tilida shuningdek fe’lning noaniq shakli bilan qo‘llanib leksikalashgan, yagona fe’l shaklini olgan so‘z birikmalari ham mavjud: *lə mənža tləl* ‘g‘oyib bo‘lmoq’, *rāmənžta kedəl* ‘paydo bo‘lmoq’, *lə mənža wřəl* ‘yo‘q qilmoq’, “yo‘qotmoq”, *lə uhde na watəl* ‘uddasidan chiqmoq’, ‘uddalamoq’ *tər sara kedəl* ‘ro‘yobga chiqmoq’, ‘amalga oshmoq’ va h.

Shuningdek *kedəl* ko‘makchi fe’li va pushtu tilida infinitiv (noaniq) shakliga ega bo‘lmagan ‘bo‘lmoq’ fe’l - bog‘lovchisi ham ko‘makchi fe’llar tarkibiga kiradilar. *kedəl* ‘bo‘lmoq’, *gərzedəl* ‘aylanmoq’, [tusini olmoq], *škāredəl* ‘bo‘lib ko‘rinmoq’, *gañəl kedəl* ‘hisoblanmoq’ va h.

Pushtu tili fe’llarining yana bir o‘ziga xos xususiyati - ularning potensial tuslanish qobiliyatidir. Fe’lning potensial shakli barcha zamon, tur, mayl va nisbatlarda qo‘llanadi. Potensial shakl olgan o‘tgan zamondagi o‘timli fe’llar ergativ konstruksiyasini saqlab qoladilar.

Pushtu tilida ‘qila olmoq’ (uning ko‘makchi shakli) fe’li yo‘q, shuning uchun harakatning sodir etilishi mumkinligini ifodalash maqsadida fe’lning alohida shaklidan foydalaniladi: bosh ma’no fe’li

[āy] o'zgaras qo'shimchasini olib, *ṣwəl* fe'li esa tuslanadi: *Zə kawəlāy ṣəm* 'Men qila olaman', *Zə tləlāy na ṣəm* 'Men bora olmayman', *Mā kawəlāy ṣwəl* 'Men qila olardim' va h.

Tur kategoriyasi

Pushtu tilida fe'lning ikki: tugallanmagan va tugallangan turi mavjud. Pushtu tilidagi hozirg'i va o'tgan zamon o'zaklari, odatda, tugallanmagan tur ma'nosiga ega: *axləm* 'olaman', *teredəm* 'men o'tganman'.

Tugallangan fe'l shakli quyidagi besh usul yordamida yasaladi:

1. Sodda fe'llardan fe'lning tugallangan turini tugallanmagan fe'l shakliga [wu] prefiksini qo'shish orqali hosil qiladi: *likəm* 'men yozyapman', *wulikəm* 'men yozib qo'yaman';

2. To'liq kirishmagan otlashgan fe'llar tugallangan fe'l yasashda o'zining tarkibiy qismlari: ot va fe'lga ajralib ketadi. *kawəl* va *kedəl* fe'llari tugallangan fe'l ko'rinishida [wu] prefiksisiz qo'llanadi. O'timsiz fe'llarning ot qismi ega bilan, o'timli fe'llarda esa bevosita to'ldiruvchi bilan moslashadi: *dre wraži teri ṣwe* 'uch kun o'tdi';

3. To'liq kirishgan otlashgan fe'llar yordamida tugallangan fe'l shakli *kawəl* va *kedəl* fe'llarini tugallangan fe'l shaklida [wu] prefiksisiz qo'llash yo'li bilan yasaladi: *taṛūn ye lāslik kəř* 'Ular shartnomani imzoladilar';

4. Bir qator fe'llar suppletiv (parallel ravishda mavjud bo'lgan) shakllardan tugallangan fe'l turini hosil qiladilar. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ba'zi fe'llarning tugallangan shakli hozirgi va o'tgan zamonda turli ko'rinishga ega bo'ladi: *tləl* 'bormoq', 'ketmoq' *Day wlāř* 'U ketdi', *Wlāřṣəm* 'Boraman' hozirgi zamon, I sh., birlik, tugallangan shakl.

kawəl 'qilmoq' fe'lining tugallangan shakli *křəl* shaklidan, *kedəl* fe'liniki esa *ṣwəl* shaklidan hosil qilinadi.

5. Prefiksli (qo'shimchali) fe'llarning tugallangan shakli (*pre*, *kše*, *nəna*, *rā*, *dənəna*, *pori*, old qo'shimchalari bilan) [wu] prefiksisiz old qo'shimchaga alohida urg'u tushishi yo'li bilan tashkil topadi: *kšewot* 'borib yetdi'.

Hozirgi zamon tugallangan shakli

Pushtu tilidagi fe'llarning xususiyatlaridan biri hozirgi zamon fe'lining tugallangan shakli mavjudligida bo'lib, u umumiy qoidalarga binoan hosil bo'ladi, faqat bu fe'l hozirgi zamon shaxs qo'shimchalarini oladi: *tər şəm, waxləm, wlārşəm* va h. Pushtu tilida hozirgi zamon fe'lining tugallangan shakli quyidagi hollarda qo'llanadi:

1) so'roq gaplarda ruxsat so'rashda: *Wulwaləm?* 'Men o'qiymi?';

2) kelasi zamonga oid bo'lgandagi real sharoitli shart ergash gaplarda;

3) maqsad ergash gaplarida;

4) gap kelajak to'g'risida borayotgan payt ergash gaplarida;

5) bosh gapda kesim vazifasida modal fe'llar va modal ma'noli fe'l birikmalari kelgan ergash gapdagi qo'shimchalarda;

6) tilak tilashda: *Loy še* 'Katta bo'lgin';

7) *di* '-sin' modal qo'shimchasidan so'ng; *Ĵwand di wi zmūṅ grān watan!* 'Yashasin ona vatanimiz!'

8) modal so'z va iboralardan so'ng: *bāyad* 'kerak', *šāyi če* 'darkor', *xwaša di da če* 'istamaysanmi', *lāzim di če* 'lozim', *mumkina da če* 'mumkin', *kawəlāy šəm če* 'qila olaman', *rāža če* 'kel', *rāša če* 'kel', *rāšəy če* 'kelinglar', shuningdek *nəjde dəy če* 'deyarli', *umid dəy če* 'umid bor' va h.

Savollar

1. Hozirgi zamon tugallangan shakli qaysi yo'l bilan yasaladi?

2. Hozirgi zamon tugallangan shakli qaysi holatlarda qo'llaniladi?

3. Hozirgi zamon tugallangan shakli nima uchun ishlatiladi?

4. Tugallangan shakldagi hozirgi zamonga misol keltiring.

Zamon kategoriyasi

Pushtu tilida uch - hozirgi, kelasi va o'tgan zamonlar mavjud. O'tgan va kelasi zamon fe'lining ba'zi shakllari analitik yo'l bilan yasaladi.

Hozirgi zamon quyidagilarni anglatadi:

- 1) nutq bilan bir vaqtda sodir etilayotgan harakat yoki holat;
- 2) doimo (istalgan vaqtda) sodir etilayotgan, demak nutq vaqti bilan mos tushgan harakat.

Pushtu tilidagi fe'llarning hozirgi zamon shakli hozirgi zamon o'zagidan hozirgi zamon shaxs - son qo'shimchalari qo'shilishi orqali hosil bo'ladi: *Zə likəm* 'Men yozyapman'.

Hozirgi zamon shaxs-son qo'shimchalari

	Birlik	Ko'plik
I sh.	<i>əm</i>	<i>u</i>
II sh.	<i>e</i>	<i>əy, āst</i>
III sh.	<i>i</i>	<i>i</i>

'bo'lmoq' fe'l-bog'lovchisining hozirgi zamonda tuslanishi

	Birlik	Ko'plik
I sh.	<i>yəm</i>	<i>yū</i>
II sh.	<i>ye</i>	<i>yāst</i>
III sh.	<i>dəy</i> (m-r.j.) <i>da</i> (m-s.j.)	<i>di</i>

'bo'lmoq' fe'l - bog'lovchisi qo'shma ot kesim tarkibida hamda fe'lining ba'zi analitik shakllarida qo'llanadi.

Umumlashtirish ma'nosini ifodalashda "bo'lmoq" fe'l - bog'lovchisi har ikkala jinsning III shaxs birlik va ko'pligida doimo *wi* 'bo'ladi' shakliga ega bo'ladi: *Də Maskaw jəmay soř wi* 'Moskvaning qishi sovuq (bo'ladi)'.

Pushtu tilida kelasi zamonning ikki: tugallangan va tugallanmagan shakli mavjud.

Kelasi zamon fe'lining tugallanmagan shakli quyidagilarni ifodalaydi: kelajakda uzoq davom etadigan harakat yoki holat va bo'lg'usi ko'p marotabalik harakat yoki umumlashtiruvchi ma'no. Barcha fe'llarning kelasi zamonining tugallanmagan shaklii hozirgi zamon fe'lining tugallanmagan shakli hamda *bə* ko'makchisi yordamida yasaladi: *Day bə ʈola wraʒ kār kawi* 'U kun bo'yi ishlaydi'.

Fe'l-bog'lovchisining kelasi zamonda tuslanishi

	Birlik	Ko'plik
I sh.	<i>zə bə yəm</i>	<i>mūnǵ bə yū</i>
II sh.	<i>tə bə ye</i>	<i>tāsi bə yāst</i>
III sh.	<i>day bə wi</i> (m-r.j.)	<i>dūy bə wi</i>

dā bə wi (m-s.j.)

Kelasi zamon fe'lining tugallangan shakli harakatning kelajakda aniq va uzil-kesil sodir etilishini ifodalab, gapga qat'iy tasdiq yoki inkor etish tusini beradi: *ʧarma bə rāʃi* 'U peshinda keladi'.

Kelasi zamon fe'lining tugallangan shakli hozirgi zamon fe'lining tugallangan shakli hamda *bə* ko'makchisi yordamida yasaladi: *Zə bə kitāb waxləm* 'Men kitobni olaman'.

Fe'ning tugallangan shakli inkor shaklida *na* inkor yuklamasi odatda [wu] old qo'shimchasidan so'ng qo'yiladi: *Zə bə xat wunalikəm* 'Men xatni yozmayman'.

O'tgan zamon fe'li nutq vaqtiga kelib yoki unga qadar tugallangan yoki tugallanmagan ish - harakatni ifodalaydi.

Pushtu tilida o'tgan zamon ham tugallangan va tugallanmagan shakllarga ajraladi.

'bo'lmoq' fe'l-bog'lovchisining o'tgan zamonda tuslanishi

	Birlik	Ko'plik
I sh.	<i>wəm</i>	<i>wū</i>
II sh.	<i>we</i>	<i>wāst</i>
III sh.	<i>wu</i> (m-r.j.)	<i>wū</i> (m-r.j.)

wa (m-s.j.)

we (m-s.j.)

O'tgan zamonda barcha turdagi fe'llarning shaxsiy qo'shimchalari

	Birlik	Ko'plik
I sh.	<i>əm</i>	<i>ū</i>
II sh.	<i>e</i>	<i>āst</i>
III sh.	<i>ə, əy</i> (m-r.j.)	<i>əl</i> (m-r.j.)
	<i>a</i> (m-s.j.)	<i>e</i> (m-s.j.)

O'tgan zamon fe'lining tugallanmagan shakli o'tgan zamon fe'lining o'zagi yoki infinitiv hamda o'tgan zamon qo'shimchasi yordamida yasaladi: *Zə tləm* 'Men ketayotgandim'. *Dūy tləl* 'Ular ketayotgandilar'.

Shuni qayd etish kerakki, o'tgan zamon fe'lining III shaxs ko'plik, muzakkar jinsdagi tugallanmagan shakli doimo fe'l infinitiviga muvofiq keladi. Infinitivining so'nggi bo'g'inida qisqa [a] tovushi mavjud bo'lgan fe'llar o'tgan zamonning tugallangan va tugallanmagan shakllarida III shaxs birlik, muzakkar jins bilan moslashuvda ushbu tovush o'rnini cho'ziq [ā] egallaydi va [ə] - zvarakay qo'shimchasini (tugallanmagan fe'l shaklida urg'uli) oladi: *Ťola wraž mi kār kāwə* 'Men kun bo'yi ishladim'.

O'tgan zamon fe'lining tugallanmagan shakli asosan o'tmishda muayyan vaqt davom etgan harakatni ifodalash uchun qo'llanadi. U shuningdek turli qo'shimcha ma'nolar ifodalashi ham mumkin:

a) harakat davomiyligi: *Parūn ťola wraž bārān ūred* Kecha kun bo'yi yomg'ir yog'di.

b) harakatning o'tmishda sodir etish maqsadi bo'lganligi: *Parūn žangal ta tləm magar hawā xaraba wa* 'Men kecha o'rmonga bormoqchi edim, ammo ob-havo yomon bo'ldi'.

Savollar

1. O'tgan zamon tugallangan shakli qaysi yo'l bilan yasaladi?
2. O'tgan zamon tugallangan shakli qaysi holatlarda qo'llaniladi?
3. O'tgan zamon tugallangan shakli nima uchun ishlatiladi?

4. Tugallangan shakdagii o'tgan zamonga misol keltiring.

O'tgan zamon fe'lining tugallangan shakli avval (nutq vaqtiga qadar) bo'lib o'tgan faktni qayd etadi, ammo harakat jarayonining o'zini ifoda etmaydi. O'tgan zamon fe'lining tugallangan shaklining fe'l shakli bayoniy nutqda odatda o'tmishda bo'lib o'tgan qator faktlar silsilasini tasvirlab keladi.

O'tgan zamon fe'lining tugallangan shakli o'tmishda bo'lib, muayyan vaqt sodir bo'lgan davomiy harakatni anglatishi ham mumkin, biroq u ushbu harakatning tugallanganligini bildiradi: *Ťola wraŹ mi xob wukər* 'Men kun bo'yi uxladim'.

O'tgan zamon shakli real sharti mavjud shartli ergash gaplarda kelasi zamon ma'nosida ham kelishi mumkin: *Ka mi paydā kər no dərta wu bə ye šəyəm* 'Agar topa olsam, men uni senga ko'rsataman'.

O'tgan zamon fe'lining tugallangan shakli nutq jonliligini oshirish maqsadida qo'llanib, nutq tugagan zahoti yoki u bilan birga sodir etiladigan harakatni anglatadi: *Tə dəlta pāteġa zə no wlāřəm* 'Sen shu yerda qol, men esa ketdim'.

O'tgan zamon fe'lining tugallangan shakli tugallangan fe'l shaklining umumiy hosil bo'lish qoidasiga (yuqoridagi beshta usul) binoan yasaladi. To'g'ri fe'llar o'tgan zamon fe'lining tugallangan shaklini o'tgan zamon fe'lining tugallanmagan shakliga [wu] prefiksini qo'shish orqali hosil bo'ladi: *Kitāb mi waxist* 'Men kitobni oldim'.

O'tgan zamon fe'lining tugallangan shakliga oid qator fe'llar parallel ravishda mavjud shakllardan hosil qiladi:

<i>tləl</i>	'yurmoq'	<i>wlāřəl</i>
<i>rātləl</i>	'kelmoq'	<i>rāyləl</i>
<i>biwəl</i>	'olib bormoq'	<i>botləl</i>
<i>išodəl</i>	'qo'ymoq'	<i>kšešodəl</i>
<i>wřəl</i>	'olib ketmoq'	<i>yowřəl</i>
<i>kawəl</i>	'qilmoq'	<i>křəl</i>
<i>kedəl</i>	'bo'lmoq'	<i>řwəl</i>

O'tgan zamon fe'lining tugallanmagan shakli *bə* ko'makchisi bilan mazkur sub'ekt uchun umumlashgan, odatiy, biroq doimiy bo'lmagan o'tgan zamon tugallanmagan holat yoki harakatni ifodalash uchun qo'llanadi: *Halək bə hara wraŹ də noro haləkāno sara pā lobo*

terawəla māšām bə korta rātey ‘Bola odatda kun bo‘yi boshqa bolalar bilan o‘ynar va uyga kechqurun qaytar edi’.

O‘tgan zamon fe’lining tugallangan shakli *bə* ko‘makchili shakli o‘tmishdagi umumlashtirishni bildirib, tugallangan harakat turini ifodalaydi: *Plār bə mā ta wukatəl wu bə ye xandəl* ‘Otam odatda menga qarar va kulib yuborar edi’.

Savollar

1. O‘tgan zamon tugallangan shakli qaysi yo‘l bilan yasaladi?
2. O‘tgan zamon tugallangan shakli qaysi holatlarda qo‘llaniladi?
3. O‘tgan zamon tugallangan shakli nima uchun ishlatiladi?
4. Tugallangan shakldagi o‘tgan zamonga misol keltiring.

O‘tgan zamon natijali fe’li (perfekt) harakat natijasini namoyon etadi. Harakatning o‘zi nutqqa qadar tugallangan, ammo uning natijasi nutq jarayonida ham mavjud. Perfekt shuningdek, so‘zlovchi u yoki bu harakat nutq vaqtiga kelib bo‘lishli yoki etilmaganligini aniqlamoqchi bo‘lganida qo‘llanib, bunda uni harakatning o‘zi emas, balki uning nutq vaqtidagi natijasi mavjudligi qiziqtiradi: *Tā Kandahār lidəlay dəy?* ‘Sen Qandahorda bo‘lganmisan?’.

Perfekt o‘tgan zamon sifatdoshi va ‘bo‘lmoq fe’l - bog‘lovchisining hozirgi zamon shakli bilan birikuvii orqali yasaladi. Bularning bari fe’l kesim hosil qiladi: *Ahmad tləlay dəy* ‘Ahmad ketib qoldi’.

na inkor yuklamasi odatda fe’l - bog‘lovchisidan oldin keladi: *Ahmad na dəy rāyəlay* ‘Ahmad hali kelmadi’.

Modal perfekt odatda ergash gaplarda qo‘llanadi. U quyidagilarni ifodalaydi:

- 1) harakatni umumlashtirib, fe’lining tur kategoriyasini bo‘rttiradi;
- 2) modal so‘z va iboralardan keyin harakatning bo‘lishlilikini taxminlash;
- 3) o‘tmishdagi real shartni ifodalagan va umumlashtirish xususiyatiga ega shart ergash gaplarda qo‘llanadi: *Acak čiri tləlay dəy?* ‘Atsak qayerga ketdi?’ *Šāyi čə xpəl kār pase tlālay wi* ‘Menimcha, u o‘z ishi bilan ketdi’.

Modal perfekt oddiy perfekt kabi hosil bo‘lib, ammo III shaxs birlik va ko‘plikda fe’l - bog‘lovchisi *wi* shaklini oladi.

Uzoq o‘tgan zamon fe’li (plyuskamperfekt) o‘tgan zamondagi boshqa harakatga nisbatan avvalroq bo‘lib o‘tgan harakatni bildiradi; u shuningdek o‘tmishdagi muayyan vaqtga qadar yakunlangan va oqibati ayon bo‘lgan harakatni ham ifodalaydi. Bu vaqtga ergash gap yordamida aniqlik kiritilishi, yoki u nutq ma’nosidan kelib chiqishi ham mumkin.

Plyuskamperfekt ko‘pincha oddiy o‘tgan zamon bilan birga qo‘llanadi. Bunda u bu harakatdan avval bo‘lishli harakatni ifodalaydi: *Acak če dar sara tləlay wu rāyay* ‘Sen bilan ketgan Asak qaytib keldi’.

Plyuskamperfekt o‘tgan zamon sifatdoshi va ‘bo‘lmoq’ fe’l - bog‘lovchisining o‘tgan zamon shakli bilan birikmasi yordamida yasaladi: *Zə maktab ta tləlay wəm* ‘Men maktabga borgan edim’.

Plyuskamperfekt *bə* yuklamasi bilan quyidagilarni ifodalaydi:

1) o‘tmishdagi oddiy bo‘lgan (bir necha marotaba) va natijasi ma’lum vaqtga kelib ayon bo‘lgan harakatni;

2) bosh gapdagi noreal shartli davrni.

Plyuskamperfekt *bə* yuklamasi bilan shu bilan birga o‘tmishda qoralash ma’nosida aytilgan, bajarilishi shart bo‘lgan harakatni ham ifodalaydi: *Tə bə dayə kitāb rāniwəlay wu* ‘Sen bu kitobni sotib olishing kerak edi’. (‘Sen bu kitobni sotib olar eding’), *Tə bə jar rāyəlay we* ‘Sen ertaroq kelishing kerak edi’

Savollar

1. *Plyuskamperfekt qaysi yo‘l bilan yasaladi?*
2. *Plyuskamperfekt qaysi holatlarda qo‘llaniladi?*
3. *Plyuskamperfekt nima uchun ishlatiladi?*
4. *Plyuskamperfektga misol keltiring.*

Mayl kategoriyasi

Zamonaviy pushtu tilida biz to‘rt: xabar, buyruq, shart-istak va faraz mayllarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Bayon mayli so‘zlovchi harakatni hozirgi, o‘tgan yoki kelasi zamonga kiritishi yoki

uning mavjudligini inkor etish bilan uni fakt deb hisoblashini ko'rsatadi.

Xabar mayli har ikki turdagi hozirgi, o'tgan va kelasi zamon shakllarida ifodalanishi mumkin: *Acak d'er kitābūna lari* 'Atsakning kitoblari ko'p'.

Buyruq mayli buyurish, ko'rsatma, qat'iy talab, harakat qilishga oddiy da'vat (buyruq ohangisiz), iltimos, shikoyat, maslahat, o'git, ogohlantirish, istak kabilarni anglatib kelishi mumkin.

Pushtu tilida buyruq mayli ikki shakliga ega: tugallangan va tugallanmagan, hamda inkor shakli. Buyruq maylining II shaxs birlik shakli odatda [a] bilan tugasa, ko'plikda esa [əy] ga tugaydi.

Buyruq maylining tugallanmagan shakli birlik shakli uchun [a] qo'shimchasi, ko'plik shakli uchun esa [əy] qo'shimchasi qo'shilishi orqali hosil bo'ladi: *Lika!* 'Yoz!', *Likəy!* 'Yozinglar!'.

Buyruq maylining inkor shakli *ma* yuklamasi yordamida hosil bo'lib, u buyruq mayli tugallanmagan shakliga qo'shib keladi: *Ma kawa!* 'Qilma!', *Ma ža!* 'Borma!'.

Buyruq maylining *rātləl* fe'li bilan shakli istak paydo qilish, birga harakat qilish, o'z-o'zini biron harakatni sodir etishga yo'llash maqsadida qo'llanadi: *Rāža! Zmā sara wlārša* 'Men bilan ketdik'.

Shart-istak mayli. Shart-istak mayli shakllari odatda noreal ma'noli shart gaplarda qo'llanadi. Noreal ma'noli shart davrining bosh gapida tugallangan va tugallanmagan o'tgan zamon fe'li, *bə* yuklamali plyuskamperfekt qo'llanilishi mumkin. Shunda bu fe'llarning o'rniga fe'ling shartli shakli ko'llanilishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Fe'l infinitivi yoki uning o'zagiga qo'shib keladigan [āy] qo'shimchasi shart-istak maylining o'ziga xos belgisi hisoblanadi. O'timli fe'llarda gapning ergativ tuzilish konstruksiyasi saqlanib qoladi.

Shart - istak maylida 'bo'lmoq' fe'l - bog'lovchisi barcha shaxslar uchun bir xil: [wāy] shakliga ega: *Ka zə xabar wāy no halta bə na wāy tləlay* 'Agar bilganimda, men uyoqqa bormas edim'.

'bo'lmoq' fe'l - bog'lovchili shart - istak mayli shaklidagi o'tgan zamon sifatdoshlari noreal shartli shart ergash gaplar tarkibida kelib, bosh gapda esa o'tgan zamondagi 'bo'lmoq' fe'l - bog'lovchili o'tgan zamon yoki *bə* yuklamali shart - istak maylidagi sifatdosh tuzilishiga ko'ra plyuskamperfekt shakliga o'xshab

ketishiga qaramay, ammo shart-istak maylida o'tgan zamon fe'lining ushbu bo'lishli ko'rinishi ro'y berishi mumkin bo'lgan harakatni anglatadi.

Infinitiv [āy] qo'shimchasi yoki o'tgan zamon fe'li o'zagi [āy] tugallanmagan harakatni bildirish, umumlashtirishni, ya'ni odatda o'tmishda yoki hozirgi vaqtda ro'y berishi mumkin bo'lgan harakat yoki holatni ifodalash uchun ishlatiladi: *Ka tə na γayrhāzaredāy lədə sara bə barābar we* 'Agar sen mashg'ulotlarni o'tkazib yubormaganingda, u bilan teng darajada bo'lar eding'.

'bāyad' so'zidan keyin kelgan shart - istak mayli shakli o'tmishda bo'lishi kerak bo'lgan, ammo ro'y bermagan harakatni ifodalaydi: *Bāyad če tā rāwuste wāy* 'Sen uni olib kelishing kerak edi'.

Shart - istak maylining *bə* yuklamali plyuskamperfekti ham sodda, ham qo'shma gaplarda qo'llanilishi mumkin. Fe'l shaklidan tashqari, gap turi hamda intonatsiya ham turlicha faraz ko'rinishlarini beradi.

Bu kabi shakl shuningdek quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1) sodir etilishi yoki kimdir sodir etishi kerak bo'lgan harakat, ammo u ro'y bermadi, yoki kutilgan vaqtda ro'y bermadi. Bunday hollarda gapda afsus, nadomat tusi ham beriladi: *Wərta ŋing şəway bə wāy* 'Sen o'z so'zingda turishing kerak edi'.

2) so'zlovchi sodir etilishi mumkin deb hisoblagan va muayyan shart-sharoitlarda (ushbu shart-sharoit nutq kontekstidan ma'lum yoki ular nazarda tutiladi) sodir etilishi mumkin bo'lgan harakatlar: *Pə dəyo payso bə nəwi makātib na wāy ta'mir şəwi!* 'Axir bu pulga yangi maktablar qurib bo'lasmidi?'.

bə yuklamasiz shart - istak mayli shakli istalgan, bajarilishi mumkin bo'lgan (ham real, ham noreal) harakat yoki holatni ifodalaydi. Odatda *kāşki* 'koshki' so'zi bilan birga qo'llanadi: *Kāşki zə lā dəwaxta məř wāy če dā xabar mi na wāy awredəlay!* 'Koshki men bu xabarni eshitmay, avvalroq o'lsam bo'lasmidi!'.

Shuni aytish kerakki, shart - istak davriga oid ergash gapda *bə* yuklamasi ishlatilmaydi.

Faraz mayli. Faraz mayli faraz, taxmin, harakatning nutq vaqtiga kelib bajarilishi imkoniyatini anglatadi.

Faraz mayli shakli modal perfekt hamda *bə* yuklamasidan hosil bo'ladi. O'timli fe'llar uchun ergativ konstruktsiya saqlanib qoladi:

Awredəli bə di wi če zmā zoy lə Irān cxa rāyəlay dəy ‘O‘g‘lim Erondan kelganini balki eshitgandirsan’; *Haya bə pə bəla lār tləlāy wi* ‘U balki boshqa yo‘ldan ketgandir (ketgan bo‘lishi mumkin)’.

Savollar

1. *Pushtu tilida nechta fe‘l mayllari mavjud?*
2. *Ular qaysi holatlarda qo‘llaniladi?*
3. *Mayllar qaysi usullar bilan yasaladi?*
4. *Mayllarga misol keltiring.*

Nisbat kategoriyasi

Nisbat kategoriyasi faqat o‘timli fe‘llarga xos. Pushtu tilida ikki asosiy nisbat mavjud: aniq va majhul nisbati.

Majhul nisbati o‘timli fe‘llardan asosiy (ma’noli) fe‘lga *kedəl* ‘bo‘lmoq’, ‘aylanmoq’ ko‘makchi fe‘lini qo‘shilishi orqali hosil bo‘ladi. Bu holatda aynan *kedəl* fe‘ligina tuslanadi: *lwastəl kedəl* ‘o‘qilmoq’.

Majhul nisbatida o‘timli fe‘l o‘timsiz fe‘lga aylanadi. Majhul nisbati barcha zamonlar, tur va mayllarda qo‘llaniladi. Bu nisbatda harakat qilayotgan shaxs quyidagi bog‘lovchilar bilan ifodalanadi: *də ... lə xwā, də ... lə palawa, də ... lə tarafa* ‘tarafidan, tomonidan’. Harakatni sodir etuvchiga ishora bo‘lmagan hollarda gapda harakat qiluvchi shaxs ko‘rsatilmaydi: *Pə Afyānistān ki pašto wayəl keği* ‘Afg‘onistonda pushtu tilida so‘zlashadilar’. Majhul nisbatida *na* inkor yuklamasi asosiy ma‘no fe‘lidan oldin qo‘yiladi: *Də xpəl kor γal na niwəl keği* ‘O‘z odamlaring ichidan chiqqan o‘g‘rini tuta olmaysan’ (O‘zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da’voga). Gapda majhul nisbatidagi fe‘l shakli yagona fe‘l kesim vazifasida keladi.

Savollar

1. *Pushtu tilida nechta fe‘l nisbatlari mavjud?*
2. *Ular qaysi holatlarda qo‘llaniladi?*
3. *Nisbatlar qaysi usullar bilan yasaladi?*
4. *Nisbatlarga misol keltiring.*

Sifatdosh

Pushtu tilida o'tgan va hozirgi zamon sifatdoshlari mavjud.

Hozirgi zamon sifatdoshi pushtu tilida shaxs yoki buyumning belgisini anglatadi. Hozirgi zamon sifatdoshi muzakkar jins birlikda [ūnkay] qo'shimchasi, muannas jins birlikda [ūnke] qo'shimchasi va har ikkala jins ko'plikda [unki] yordamida hosil qilinib, bu qo'shimchalar o'tgan zamon fe'li o'zagiga qo'shiladi: *tlūnkay* 'ketayotgan'.

Hozirgi zamon sifatdoshi ma'nosi va sintaktik vazifasiga ko'ra sifatga yaqin bo'lganligi tufayli osonlik bilan sifatga aylanishi mumkin. Hozirgi zamon sifatdoshlarining aksariyati ot sifatida qo'llanib keladi: *likūnkay* 'yozuvchi', *lwastūnkay* 'o'quvchi', 'kitobxon', *zdukawunkay* 'o'quvchi' va h.

kawəl 'qilmoq', *yuštəl* 'xohlamoq', *baxšəl* 'in'om etmoq' kabi fe'llardan hosil qilingan hozirgi zamon sifatdoshlari ot va sifat yasashda ishlatiladi: *sula yūštūnkay* 'tinchliksevar', *āzādi baxšūnkay* 'haloskorlik'.

Pushtu tilida o'tgan zamon sifatdoshining faqat tugallangan turi mavjud. O'tgan zamon sifatdoshining nisbatlilik ma'nosi fe'l semantikasiga bog'liq.

O'tgan zamon sifatdoshlari muzakkar jins birlikda [ay], hamda muannas jins birlikda [e] qo'shimchasiga ega bo'lib, har ikki jinsning ko'plik shaklida [i] qo'shimchasini oladi. Sodda, tub fe'llardan o'tgan zamon sifatdoshlari, odatda, fe'l infinitividan yuqoridagi qo'shimchalarni qo'shish yo'li bilan hosil etiladi: *likəlay* 'yozilgan'. Ba'zi fe'llardan o'tgan zamon sifatdoshi o'tgan zamon fe'l o'zagidan ham yasalishi mumkin: *axistay* 'olingan'. *kedəl* fe'lidan o'tgan zamon sifatdoshi quyidagicha hosil bo'ladi: *kedəldan* - *şway*, *kawəldan* - *kři*, *işodəldan* - *işay*, *rātləldan* - *rāγəlay*.

Savollar

1. *Pushtu tilida nechta sifatdosh mavjud?*
2. *Ular qaysi holatlarda qo'llaniladi?*
3. *Sifatdoshlar qaysi usullar bilan yasaladi?*
4. *Ularning gapdagi vazifasiga misol keltiring.*

Ravish

Ravish pushtu tilida mustaqil soʻz turkumi sifatida leksik vazifasi va maʼnosiga koʻra ajralib turadi. Ravishlar pushtu tilida kamchilikni tashkil etadi. Maʼnosiga koʻra ravishlar ikki asosiy guruhga ajraladi: hol ravishlar va aniqllovchi ravishlar. Birinchi guruhga *dalta* ‘shu yerda’, *halta* ‘u yerda’, ‘u yoqqa’, *berta* ‘orqaga, ortga’, *təl* ‘doim’, *dəməxa* ‘ilgari, avval’ va h. lar, ikkinchi guruhga esa *nācapa* ‘toʻsatdan’, *xwāra* ‘juda’ kabi soʻzlar kiradi.

Pushtu tilida ham soʻz oldi qoʻshimchali, ham qoʻshimchasiz sifat va otlar ravish vazifasida qoʻllanilishi mumkin: *māšām* ‘kechqurun’, *pəpəta* ‘yashirincha’, ‘bekitqcha’.

Ravish vazifasini bajargan sifatlar, odatda, oʻz belgilarini yoʻqotmaydilar: *Daya māña dʼera xwağa da* ‘Bu olma juda shirin’.

Pushtu tilida baʼzi ravishlar koʻmakchi sifatida ham qoʻllanilib, bunda ular oʻz leksik maʼnolarini yoʻqotmaydilar: *lāndi*, *sara*, *tərşā*, *tər mez lāndi* ‘stol tagida’.

Old va ort koʻmakchilar (predlog va posleloglar)

Pushtu tilidagi soʻz oldi qoʻshimchalari (predloglar) mavhum leksik maʼnoga ega boʻladilar: *də*, *pə*, *pər*, *lə*, *tər*, *be*, *wə*.

Shundan kelib chiqib, har bir qoʻshimchaning maʼnosiga tegishli soʻz orti qoʻshimchasi (poslelog) yordamida aniqlik kiritiladi.

Pushtu tilida soʻz orti qoʻshimchalari soni soʻz oldi qoʻshimchalariga nisbatan ancha koʻp. Barcha soʻz orti qoʻshimchalarini kelib chiqishi oʻta qadim boʻlgan *ta*, *na*, *cxə*, *ki* (*kše*), *lara*, *lə* kabi tub soʻz orti qoʻshimchalariga va asosiy qismi ravishdan yasalgan *lāndi*, *bāndi*, *sara* kabi ot soʻz orti qoʻshimchalariga ajratib koʻrsatish mumkin.

Har bir soʻz orti qoʻshimchasining qoʻllanilishi uning leksik maʼnosi bilan shartlangan va unga bogʻliq boʻlib, shu tufayli soʻz orti qoʻshimchalarining qoʻllanish doirasi juda tor. Old va ort qoʻshimchali otlar aksar hollarda vositali kelishikda ishlatiladi.

Pushtu tilida baʼzi old va ort qoʻshimchalar mustaqil qoʻllanilishi va gap tarkibida mustaqil gap boʻlagi sifatida kelishi mumkin. *pə*, *pər*, *tər*, *žəni*, *bāndi* kabilar ana shunday soʻz oldi va orti qoʻshimchalardan

hisoblanadi. *Də plār yawa lūr da xwarā pər grāna da* ‘U otasining yolg‘iz qizi bo‘lib, otasining arzandasi’.

Bog‘lovchilar

Morfologik tarkibiga ko‘ra pushtu tilidagi bog‘lovchilar sodda va qo‘shma bog‘lovchilarga bo‘linadilar. *no*, *aw* kabilar sodda bog‘lovchi hisoblansa, *ka cə ham* tipidagi bog‘lovchilar qo‘shma bog‘lovchilar tarkibiga kiradi. Bog‘lovchilar sintaktik vazifasiga ko‘ra teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilarga bo‘linadi.

Teng bog‘lovchilar gapda bir turdagi gap bo‘laklarini yoki ergash gapli qo‘shma gapning qismlarini bog‘lab, murakkab so‘zlar, so‘z birikmalar tarkibiga kiradi: *aw* ‘va’, ‘-sa’, ‘yoki’, *ya* ‘yo’, ‘yoki’ va h.

Tobe’ bog‘lovchilar biri boshqasiga (bosh gapga) bog‘liq bo‘lgan ikki gapni o‘zaro bog‘laydi. Odatda ergashtiruvchi bog‘lovchilar ergash gap boshida kelib, juft bog‘lovchilar esa ergash gapli gapning ikki qismida joylashadi.

Shart bog‘lovchilar: *ka no* ‘agar. . . , u holda’, *ka čiri* ‘agar’, *āgar* ‘agar’, *ka* ‘agar’.

To‘siq boglovchilar: *ka cə ham* ‘-sa ham’, ‘-ga qaramay’, *āgar ka* (če) ‘-sa ham’, *ka cə ham - xo byā ham* ‘. . . bo‘lishiga qaramay’.

Maqsad boglovchilari: *če* ‘uchun’, *da de dəpāra če* ‘uchun”, ‘-ish uchun’.

Payt bog‘lovchilari: *če* ‘qachonki’, *co če* ‘qachonki’, *kəla če* ‘qachonki’, *haya waxt če* ‘-gan vaqtda’, *cərangə če* ‘-gan zahoti’.

Sabab bog‘lovchilari: *wali če* ‘chunki’, *žəka če* ‘sababli’.

Natija bog‘lovchilari: *žəka* ‘shuning uchun’.

Izohli bog‘lovchilari: *če*, *či*.

Yuklamalar

Tilda alohida so‘zlar, shu bilan birga butun boshli gapning ma’no jihatlarini ifodalashga xizmat kiladigan yordamchi so‘zlar yuklama deb ataladi. Yuklamalar grammatik ma’no ifodalab kelishi ham mumkin, masalan, *be*, *ma* yuklamalari.

Pushtu tilidagi asosiy yuklamalar quyidagilar: *xo* ‘axir’, *ho* ‘ha’, *āyā* ‘-mi’, *ham* ‘ham’, *di* ‘-sin’, *na* ‘yo‘q’, ‘-mas’, *ma* ‘be’, *hoke* ‘ha’, ‘albatta’, *bə*, *ba* (*bə* leksik ma‘noga ega emas, shuning uchun o‘zbek tiliga tarjima qilinmaydi).

His-hayajon so‘zlar

His-hayajon so‘zlar - so‘zlovchi shaxsning irodasi hamda ehtiroslarini ifodalashga xizmat qiladigan yordamchi so‘zlardir.

Ehtiros, his-hayajon (quvonch, qo‘llab-quvvatlash, hayrat, afsus, qo‘rquv, dard va h.) ifodalaydigan so‘zlar: *ax!* ‘ax!’, *āfarin!*, *āparin!* ‘ofarin!’, *hura* ‘ura!’, *pə maṭi* ‘oho!’ (hayratlanish), *way way* ‘voh-voh’, *hahay* ‘eh!’, ‘afsus’, *hay hay* ‘eh’, ‘evoh’, *haho* ‘yo‘g‘-e’, *wāy* ‘voy!’, *wāwā* ‘o‘ho!’ va h.

So‘zlovchining irodasyani (murojaat, chaqirish, undash, yordam so‘rash, do‘q-po‘pisa) ifodalaydigan his-hayajon so‘zlar: *halo* ‘allo!’, *hala* ‘ey, tezroq!’, *haləy!* ‘tezroq!’ va h. *amān!* ‘avf eting!’, *hā!* ‘ehtiyot bo‘ling!’, *bačāw!* ‘voydod!’, ‘yordam bering!’ va h.

Savollar

1. *Pushtu tilida qanday ko‘makchilar mavjud?*
2. *Ular qaysi holatlarda qo‘llaniladi?*
3. *Pushtu tilida bog‘lovchilarning nechta turi mavjud?*
4. *Ularning gapdagi vazifasiga nima?*
5. *Yuklamning gapdagi vazifasiga nima?*
6. *His-hayajon so‘zlarga misol keltiring.*

SINTAKSIS

So‘z birikmasi hamda gap tarkibidagi so‘zlar o‘zaro turli vositalar yordamida bog‘lanadilar: so‘z oldi va so‘z orti qo‘shimchalari, vositali kelishik, bog‘lovchilar va so‘zlar tartibi orqali. So‘zlar orasidagi aloqa teng bog‘lovchilar va sanash intonatsiyasi, so‘z oldi va so‘z orti qo‘shimchalar orqali amalga oshirilsa, u teng aloqa deb, moslashuv, so‘z oldi va so‘z orti qo‘shimchalar, birikish hamda so‘zlar tartibi orqali amalga oshirilganida ergash aloqa deb ataladi.

Moslashuv deb pushtu tilida tobe soʻz bosh soʻzga jins, son va kelishikda moslashadigan aloqa turiga aytiladi. *sūr qalam* ‘qizil ruchka, qalam’, *tora şpa* ‘qorongʻi tun’ va h.

Pushtu tilida birikish deb ham soʻz birikmasi, ham gap tarkibidagi soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish, aloqa bogʻlash usullaridan biriga aytiladi. Ushbu tamoyil asosiga qurilgan soʻz birikmalarida bir soʻzning oʻzidan ustun boʻlgan ikkinchisiga tobeligi muayyan soʻz tartibi bilan ifodalanadi: *yawa lapa gdʻən* ‘bir hovuch sulī’, *nar hiləy* ‘nar oʻrdak’ va h.

Uchta va undan ortiq soʻzdan tashkil topgan soʻz birikmalarida soʻzlarning oʻzaro aloqasi aralash ekanligi bilan taʼriflanadi va tabiiyki, turli grammatik vositalar bilan ifodalanadi.

Pushtu tilida gap tuzish uchun soʻzlarning nisbatan qatʼiy tartibi mavjud. Kesim doim gap oxirida, ega esa odatda gap boshida keladi. Toʻgʻri, egadan avval payt holi kelishi ham mumkin. Pushtu tilida aniqllovchi doimo aniqlanmish oldida joylashadi. Gapdagi soʻzlarning odatiy tartibi buzilishini faqat sheʼriyat va ertaklardagina kuzatish mumkin.

Zamonaviy pushtu tilida quyidagi soʻz birikmalari ajralib turadi:

1) erkin, nisbatan erkin soʻzlardan iborat boʻlib, murakkab tushuncha anglatgan grammatik yigʻindilari: *də kor bam* ‘uyning tomi’;

2) avvalboshdan erkin boʻlmagan (frazologik), butunligicha qoʻllanib, gap tuzilishiga bogʻliq boʻlmaydilar. Bu kabi soʻz birikmalari soʻzlarning gap asosida erkin birikishining natijasi boʻlmay, balki tildagi tayyor soʻz guruhlarini hisoblanib, maʼnosiga koʻra bir soʻz maʼnosiga teng boʻladi: *loy lās larəl* ‘yaxshi mutaxassis boʻlmoq’.

Pushtu tilida erkin soʻz birikmalari oʻz asosiy grammatik shakliga koʻra quyidagi guruhlarga ajraladilar:

1) bitishuv tamoyili asosida birlashgan birikmalar: *loy kor* ‘katta uy’;

2) soʻz oldi oʻhshimchalari va koʻmakchilar yordamida hosil boʻlgan birikmalar: *də plār wror* ‘otamning akasi’, *də kor bam* ‘uyning tomi’;

3) birikish asosida tashkil topgan birikmalar: *yaw gilās obə* ‘bir stakan suv’.

Erkin birikmalar bosh (asosiy) so‘ziga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) bosh so‘z vazifasida ot yoki sifat kelgan birikmalar: *də sūli siyāsət* ‘tinchlik siyosati’, *şna wəna* ‘yashil daraxt’, *pə sātəna aw basyā kawəlo muwazaf* ‘qo‘riqlash va xizmat ko‘rsatishga majbur’;

2) bosh so‘z o‘rnida fe‘l ishtirok etgan birikmalar: *pər masāla cerəna kawəl* ‘masalani muhokama qilmoq’.

Sodda gap

O‘tgan zamondagi o‘timli fe‘l ishtirokidagi gap (ergativ konstruksiya) tuzish.

O‘tgan zamondagi o‘timli fe‘l ishtirokidagi gaplarda fe‘l-kesim ega bilan emas, balki doimo bosh kelishikdagi (so‘z oldi va so‘z orti qo‘shimchalarisiz) to‘g‘ri to‘ldiruvchi bilan moslashadi. Ega esa doimo vositali kelishikda keladi va u gapda bo‘lishi doimo shart. Bunday gap tuzilishi ergativ konstruksiya deb ataladi: *Mā kitāb waxist* ‘Men kitobni oldim’.

O‘tgan zamondagi o‘timli fe‘lli gapda ega egalik, ko‘rsatish, noaniq-so‘roq olmoshlari, enklitik olmoshlar yoki istalgan boshqa so‘z turkumi bilan ifodalanishi mumkin.

Agar ega egalik yoki ko‘rsatish olmoshi, ot yoki gapning istalgan substansiyalashgan bo‘lagi bilan ifodalansa, u holda ega gapda to‘g‘ri to‘ldiruvchidan oldin keladi. Shuning uchun *Rošān pir latāwə*, ya’ni «Roshan o‘ziga pir izladi» jumlasida ega va to‘g‘ri to‘ldiruvchi morfologik jihatdan farqlanmaganligi tufayli quyida sxemasi keltirilgan gap tuzilish tartibi qo‘llanishi mumkin:

1	2	3	4
ega	to‘g‘ri to‘ldiruvchi	vositali to‘ldiruvchi	kesim (fe‘l)

Agar ega enklitik olmosh bilan ifodalangan bo‘lsa, bunday holda u sodda gapda odatda to‘g‘ri to‘ldiruvchidan keyin keladi.

Yoyiq gaplarda enklitik olmoshlar odatda gap boshidagi istalgan so‘z turkumidan so‘ng joylashadilar. Gapda bir necha to‘g‘ri to‘ldiruvchi mavjud bo‘lganida, fe‘l ulardan oxirgisi bilan jins, son va

shaxsda moslashadi: *Də xpəl baks kitāb kalam aw məşwānəy waxista aw lə kora wot* ‘U portfel, kitob, ruchka, siyohdonni oldida, uydan chiqdi’.

Agar gapda o‘tgan zamon shaklidagi o‘timli fe’llar bilan ifodalangan uyushiq (sodda, bir tusli) kesimlar bo‘lsa, unday holda jumladagi ega kesim vazifasida kelgan o‘timli fellar miqdoriga bog‘liq ravishda takrorlanib kelishi mumkin: *Mūğ bə pə tawda koṭa ki nāst wu maktubuna bə mu likəl* ‘Biz esa odatda issiq xonada o‘tirib, xat yozar edik’.

Jumla ma’nosi nuqtai nazaridan ega takrorlanmasligi mumkin bo‘lgan hollarda ham u bir necha bor qaytalanadi.

Kesimning ega bilan muvofiqlashmaganligi kesim gapda albatta ishtirok etishini talab qilib, xuddi ana shu hodisa uyushiq kesimlar tufayli eganing takrorlanishiga olib keladi. Ergativ konstruksiyali gap egasiz o‘z ma’nosini yo‘qotadi va nutqning asosiy kommunikativ birligi bo‘lmay qoladi.

Pushtu tilida ergativ konstruksiya o‘timli fe’llarning barcha o‘tgan zamondagi shakllarida va barcha mayl va shakllarida kuzatiladi.

Pushtu tilida gap tasnifi

Gap tarkibidagi bir yoki ikki bosh bo‘lak mavjudligiga qarab sodda gaplar bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplarga bo‘linadi. Ikki bosh bo‘lakli gaplarga tarkibida gapning har ikkala bosh bo‘lagi - ega va kesimga ega bo‘lgan gaplar kiritiladi: *Zə žəm* ‘Men ketyapman’.

Pushtu tilidagi bir bosh bo‘lakli gaplarga quyidagilar kiradi:

1) cheklangan miqdordagi shaxssiz gaplar: *xwā ta mi na keḡi* ‘Xohlamayman’;

2) Egasi yo‘q gaplar - buyruqlar: *Dreḡ!* ‘To‘xta!’;

3) Shaxsi noma’lum gaplar: *Tabəy ta pə fārsi cə wāyi?* ‘Fors tilida yog‘log‘i nima deb aytiladi?’;

4) Shaxsi umumlashgan gaplar: *Cə čə kare haya bə rebe!* ‘Ekkaningni o‘rasan!’;

5) Formula - jumlar (salomlashish, xayrlashuv, istak): *Də xudāy pā āmān!* ‘Xayr’, «Omon bo‘ling!», *Pə məxa di ša!* ‘Oq yo‘l!’;

6) His - hayajon gaplar: *Pər stərgo bādāra!* ‘Xo‘p bo‘ladi, janob!’;

Shuningdek shaxsiy qo‘shimchasi bo‘lgan fe‘l-kesimli, ammo egani so‘z bilan ifodalanishning iloji bo‘lmagan gaplarni ham bir bosh bo‘lakli deb hisoblasa bo‘ladi: *Cə sar di gərzawəm* ‘Boshingni qotirib o‘tirmayman’.

Sodda gaplar harakat sub’ekti bor yoki yo‘qligi, uning xususiyatlaridan kelib chiqib, hamda shu bilan bog‘liq ravishda egani tuzilish usuliga ko‘ra shaxsi ma‘lum, shaxsi noma‘lum, shaxsi umumlashgan va egasiz gaplarga bo‘lish mumkin.

Shaxshi ma‘lum gaplarda doimo ot yoki substantiv qo‘llangan boshqa so‘z turkumi bilan ifodalangan ‘shaxsiy’ egasi mavjud bo‘ladi: *Dā xabəra pə mā bāndi ša wulageda* ‘Bu menga yokdi’.

Shaxsi noma‘lum gaplar deb egasi bo‘lmagan gaplarga aytiladi. Fe‘l-kesim doimo uchinchi shaxs ko‘plikda qo‘llanadi: *Də meřə wror ta cə wāyi?* ‘Erning aka(uka)sini nima deb aytiladi?’

Shaxsi umumlashgan gaplarda kesim muayyan shaxsga emas, balki ana shunday vaziyatga tushishi mumkin bo‘lgan har qanday shaxsga tegishli harakatni anglatadi. Shaxsi umumlashgan gaplarda kesim ham I shaxs ko‘plikda, ham II shaxs birlik va ko‘plikda kelishi mumkin: *Awwal zdakřa byā kuzda křa* ‘Avval o‘rgan, keyin uylan’.

Undov gap so‘zlovchining xabar qilinayotgan biror bir ma‘lumot, habar yoki yangilikka nisbatan his - hayajonli munosabatini bildiradi.

Undov gaplarda hayajon intonatsiyasidan tashqari so‘zlovchining o‘zi xabar qilayotgan ma‘lumotga nisbatan hissiy munosabatini anglatgan undov so‘zlar ham qo‘llanishi mumkin: *Stā ālām comra šāista dəy! Comra gulālay!* ‘Sening olaming naqadar ajoyib! Naqadar go‘zal!’.

Sodda gap bosh (ega va kesim) va ikkinchi darajali gap bo‘laklaridan (noto‘g‘ri va to‘g‘ri to‘ldiruvchi, aniqllovchi, ilova, hol) iborat bo‘ladi.

Pushtu tilida gapning bosh bo‘laklari vazifasida faqat alohida so‘zlar emas, balki butun boshli so‘z birikmalari ham kela oladi.

Ega pushtu tilida har vaqt ham gapning ikkinchi bosh bo‘lagi - kesim ustidan grammatik jihatdan ustun bo‘la olmaydi. Ega vazifasida

kelgan soʻz ham bosh, ham vositali kelishikda, ham soʻz oldi qoʻshimchasi bilan, ham usiz kelishi mumkin: *Špānə wārta wayəl* ‘Podachi unga aytdi’.

Kesim, ega kabi gapning bosh va nisbatan mustaqil boʻlagi hisoblanadi. Pushtu tilida kesim faqat egaga bogʻliq boʻlavermaydi. U baʼzan grammatik jihatdan egaga boʻysunmay, balki toʻgʻri toʻldiruvchi bilan moslashadi. Zamonaviy pushtu tilida shaxsiy shakl olgan feʼl kesimning rasmiy - grammatik belgisi deb hisoblanadi (*šta* bilan bogʻliq holatlar bundan istisno).

Pushtu tilidagi kesimlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: ot kesim (*Tə zmā melmə ye* ‘Sen mening mehmonimsan’) va feʼl kesim (*Day wlār* ‘U ketdi’).

Qoʻshma ot kesim tarkibida feʼl - bogʻlovchi boʻlishi shart. Faqat dialog suhbat, maqol va matallarda, sheʼriyatda feʼl - bogʻlovchi tushib kolishi mumkin: *Nek amal də lāri mal* ‘Savob ish – hamrohdir’.

Pushtu tilida murakkablashgan ot kesim ham bor: *Pə bagəy ki kṛūp prot wəm* ‘Men kolyaskada ikki bukilib yotardim’.

Feʼl kesimni sodda (*Zə žəm* ‘Men ketyapman’, *Də xpəl kor yal na niwəl kegi* ‘Oʻzingdan chiqqan oʻgʻrini tutish ogʻir’), feʼl - ot (*Də lmar xato waxt lmarcrak bolū* ‘Quyoshning otadigan vaqtini biz kunchiqar deb ataymiz’, *Dā ham dūy nekfāl gañi* ‘Buni ham ular yaxshi alomat deb hisoblashadi’), murakkab (*γwarəm naukari wukṛəm* ‘Xizmat qilishni istayman’) turlarga ajraladi.

Murojaat

Pushtu tilida murojaat odatda ot yoki chaqiruv kelishigidagi substantsiyalashgan istalgan soʻz turkumi bilan ifodalanadi. Murojaat bironta gap boʻlagi bilan grammatik jihatdan bogʻlanmagan va shuning uchun gap boʻlagi boʻla olmaydi: *Āy kona! Na awre?* ‘Ey, kar! eshitmadingmi?’.

Savollar

1. *Pushtu tilida gap necha turga boʻlinadi?*
2. *Ular qaysi holatlarda qoʻllaniladi?*
3. *Pushtu tilida sodda gaplarning nechta turi mavjud?*

4. *Shaxsi noma'lum va shaxsi umumlashgan gaplar orasida qanday tafovut bor?*

5. *His-hayajon (undov) gaplarga misol keltiring.*

Qo'shma gap

Qo'shma gaplar sintaktik munosabatlar tusiga va ular alohida qismlarining o'zaro bog'lanish turlariga ko'ra bog'langan qo'shma gaplar va ergash gapli qo'shma gaplarga bo'linadi.

Bog'langan qo'shma gaplarda sodda gaplar o'zaro teng bog'lovchilar yoki intonatsiya yordamida (bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar) bog'lanadilar.

Pushtu tilida bog'langan qo'shma gaplarning quyidagi tuzilish-semantik turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birgalikda amalga oshirilgan munosabatlarni ifodalagan bog'langan qo'shma gaplar, ulardan eng keng tarqalganlari *aw* 'va' bog'lovchisi ishtirokidagi gaplar;

1) *magar* 'ammo', *likən* 'lekin', *xo*, *ammā* 'ammo' bog'lovchilari yordamida ziddiyatli munosabatlarni ifodalagan bog'langan qo'shma gaplar;

2) ajratuvchi munosabatlarni ifodalagan bog'langan qo'shma gaplar: *Mor o plār xo yā pə də muāmala γaur aw fikr na kawī aw yā xo dūy muṣahadāt aw usūl nimkala aw mutanaqiz wi* 'Yo ota-onalar bu to'g'rida o'ylab ko'rmaydilar, yo ularning kuzatish va qarashlari nomukammal va qarama-qarshidir';

3) qo'shma gap birinchi qismining ma'nosini ochib beradigan bog'langan qo'shma gaplar. Pushtu tilida ular odatda yani bog'lovchisi bilan bog'lanadi yoki bog'lovchisiz konstruksiyadan foydalaniladi.

Ergash gapli qo'shma gaplar

Ergashgan qo'shma gaplar tarkibiga ma'nosiga ko'ra turlicha bo'lgan ergash gaplar kirishi mumkin. Ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi ergash gaplar miqdorini cheklaydigan biron-bir me'yor

mavjud emas. Zamonaviy pushtu tiliga bir necha ergash gap ishtirokidagi qo'shma gaplar xos emas.

Ergash gaplarning turlari

Ergash gaplar tasnifi asosida ularning sintaktik vazifasi va bosh gap bilan ma'noli munosabatlari yotadi.

Ega ergash gaplar bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi (haya, dā) bilan ifodalangan egani izohlab keladi yoki bosh gapdagi ega vazifasini bajaradilar: *haya cə čə zə γwāřəm dālta na paydā keği* 'Men istagan narsa bu yerda yo'q'.

Bosh gapdagi ega vazifasida kelgan ega ergash gaplar *čə* bog'lovchisi yordamida bog'lanadi va odatda bosh gapning zaruriyat va majburiyat anglatgan kesimidan keyin keladi: *bāyada di čə, šāyi čə, lāzim di čə* 'kerak', 'darkor', 'lozim' va h.

Kesim ergash gaplar odatda 'bo'lmoq' fe'l-bog'lovchisi bilan va uning ot qismi *haya, dā, cok* kabilar bilan ifodalangan bosh gapning kesimi mazmunini ochib beradi. Ular bosh gapga *čə* bog'lovchisi yordamida birikib, undan keyin joylashadi.

To'ldiruvchi ergash gaplar bosh gapga yoyiq to'ldiruvchidan iborat bo'ladi yoki odatda *xohaya* yoki *dā* olmoshlari bilan ifodalangan bosh gapning mazmunini ochib beradi. *čə* bog'lovchisi bilan boshlangan to'ldiruvchi ergash gaplar ko'pincha bosh gapdan keyin kedadi. *har cə čə, har cok čə* olmoshlari bilan boshlangan to'ldiruvchi ergash gaplar esa bosh gapdan avval joylashib, bosh gapning to'ldiruvchisiga tegishli bo'ladilar: *Zə haya cə γwāřəm čə tə ye ham γwāře* 'Men sen ham xohlagan narsani istayman'.

Aniqlovchi ergash gaplar bosh gapning ot yoki ot ma'nosida qo'llangan so'zlar bilan ifodalangan biror bo'lagini aniqlab keladilar. Ular aniqlanayotgan so'z yoki bosh gapning kesimiga che bog'lovchisi yordamida bog'lanadi.

Pushtu tilida *čə* ko'pgina ergash gaplar boshida kelganligi sababli qo'shma gapda muayyan ma'no munosabatlarini ifodalash uchun qo'shimcha grammatik vositalar, masalan qiyoslovchi so'zlar, so'z

oldi va soʻz orti qoʻshimchali olmoshlar, mustaqil qoʻllangan soʻz oldi va soʻz orti qoʻshimchalari, enklitik olmoshlar va h. ishlatilishi mumkin. Aniqlovchi ergash gap koʻpincha oʻzi aniqlab kelgan soʻzdan keyin kelib, shu bilan bosh gap ichiga kirib boradi: *haya kitāb, če tā ye lwale dā čā dāy?* ‘Sen oʻqiyotgan kitob kimniki?’.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapga *laka* če yordamida bogʻlanib, undan soʻng kelishi ham mumkin.

Bosh gapdagi aniqlanayotgan soʻzga qoʻshimcha ravishda *dā*, *haya* olmoshlari hamda enklitik olmoshlar qoʻllanilishi mumkin. Bu holda aniqlanmish soʻzni oʻz ichiga olgan ergash gap bosh gapdan oldin keladi va unga intonatsiya koʻmagida birlashadi. Pushtu tilidagi qoʻshma gapning bunday turi alohida nutq ohangiga ega.

Bu kabi gaplar ergash aniqlovchili oddiy qoʻshma gaplardan farq qiladi va pushtu tilining oʻziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi: *haya obā če hickāla na wučēgi xalk ye paxe obā boli* ‘Hech qachon qurib qolmaydigan suvni xalq ‘paxe obi’ deb ataydi’; *Šāža če baluy ta na wi rasedāle dā no njālay da* ‘Balogʻat yoshiga yetmagan ayolni qiz deb atashadi’.

Payt ergash gaplar bosh gap kesimi bilan ifodalangan harakat qachon (ketma-ketlilik, bir vaqtlilik va vaqtdagi farqlanish), qancha vaqt, qachondan beri, qachongacha amal qilishini koʻrsatadi. Vaqt ergash gap shuningdek bosh gapdagi vaqt holining mazmunini izohlab kelishi yoki bosh gapning yoyiq vaqt holi boʻlib kelishi mumkin.

Payt ergash gaplar bosh gapdan soʻng, undan keyin, hatto uning ichida kelishi ham mumkin.

Odatda boʻlib oʻtayotgan boʻlishli harakatni yoki kelajakda roʻy beradigan harakatni ifodalagan payt ergash gaplarda hozirgi zamon tugallangan feʻli shakllari qoʻllanadi.

Payt ergash gaplar če bogʻlovchisi va muayyan vaqt maʼnosiga ega boʻlgan boshqa murakkab bogʻlovchilar bilan boshlanadilar: *wrusta tār de (haya) če, lumřay tār de če, dāmāxa tār de če, pāxwā tār de če, haya waxt če, tār co puri če, lā haya waxta če, kēla če, harkēla če, cānga če, pā dāsi hāl ki če.*

pā dāsi hāl ki če bogʻlovchili va bir egalik payt ergash gaplar quyidagicha tarjima qilinishi mumkin: *Pā dāsi hāl ki če stāsu dā*

xāwri dāpāsa tereḡam xpəl tāwdə tamniyāt astawəm ‘Hududingiz ustidan uchib o‘tayotib, Sizga eng yaxshi istaklarimni bildiramani’.

Maqsad ergash gaplar *če, dade dāpāra če, co če* bog‘lovchilari bilan boshlanadi. Maqsad ergash gaplarda kesim odatda hozirgi zamon tugallangan shaklida keladi.

Maqsad ergash gap *če* bog‘lovchisi bilan boshlansa, unday holda u doimo bosh gapdan so‘ng joylashadi.

Maqsad ergash gap *dade dāpāra če* bog‘lovchisi bilan boshlansa, unda u bosh gapdan avval keladi: *Dade dāpāra če xalk mela wuki yaw maxsūs žāy takəlay dəy* ‘Xalq sayllari uchun maxsus joy ajratilgan’.

Sabab ergash gap *žəka če, le də kabala če, le də amala če, dade pə sabab če, har kəla če, cə ranga če, wali če, če* kabi bog‘lovchilardan boshlanadi. *žəka če, wali če, če* bog‘lovchilari bilan boshlangan sabab ergash gaplar bosh gapdan keyin joylashadi: *Turyālay nən d’er xuṣhāla dəy aw pə kāliyo ki na žāyeḡi žəka če pə azmuyəna ki baryālay ṣəway dəy* ‘Turyolay bugun juda xursand, chunki u imtihonni muvaffaqiyatli topshirdi’. Doimo bosh gapdan keyin keladi va no hamda dzeka bog‘lovchilarining birikmasi bilan boshlanadi. Ba‘zan *no* va *žəka* bog‘lovchilari ayrim holda qo‘llanilishi ham mumkin: *haya ṣarāb cəkəlay dəy žəka pə huṣ ki na dəy* ‘U rosa vino ichdi, shuning uchun ham behush yotibdi’.

Barcha **shart ergash gaplar** *ka, ka čiri, ka kəla* bog‘lovchilari hamda ba‘zan "agar" ma‘nosida qo‘llangan *če* bog‘lovchisi bilan kiritiladi. Odatda bosh gapda *no* bog‘lovchisi qo‘llanib, lekin u ba‘zan ishlatilmasligi ham mumkin. Shart ergash gaplar ko‘pincha bosh gapdan avval keladilar. Shart ergash gaplar ham real, ham noreal shartni ifodalab kelishi mumkin.

Real shart ifodalagan shart ergash gapda kesim hozirgi zamon bo‘lishli shaklida, ‘bo‘lmoq’ fe‘l-bog‘lovchisi esa III shaxsda *wi* shaklida qo‘llanilishi ham mumkin.

Bu hollarda ham nutq vaqtiga oid, ham doimo mavjud bo‘lgan (umumlashtirishda) shart-sharoitlar ifodalanadi. Shart kelasi zamonga oid bo‘lsa, u holda ergash gapda hozirgi zamon bo‘lishli fe‘l shakli qo‘llaniladi. Shart ergash gapda o‘tgan zamon, bosh gapda esa hozirgi va kelasi zamon fe‘llari ishlatilishi ham mumkin: *Ka di bəl wuwāhə pə*

nūk tā bə wuwahi pə suk ‘Agar sen birovni barmog‘ing uchi bilan ursang, seni musht bilan urishadi’.

Noreal shartli ergash gaplarda fe‘l shart-istak maylining *bə* ko‘makchisiz qo‘llangan shakli qo‘llanib, bosh gapda esa aniqlik maylining sodda o‘tgan zamon *bə* ko‘makchili yoki shart-istak mzylining *bə* ko‘makchili qo‘llanilishi mumkin: *Ka tāsi wayəli wāy mā bə kitāb rāwəray wu* ‘Siz aytganingizda, men kitobni olib kelgan bo‘lardim’.

To‘siqsiz ergash gaplar *ka cə ham, sara lə de če, agar ka* murakkab bog‘lovchilar, ba‘zan *ka* bog‘lovchisi bilan boshlanadi. Ergash bosh gapdan oldin kelib, *ka cə ham, sara lə de če* bog‘lovchilari bilan boshlansa, bosh gap boshida ko‘pincha *xo byā ham, byā ham, magar byā ham, xo, likən, ho sara lə hača če* bog‘lovchilari turadi.

To‘siqsiz ergash gap aksar hollarda bosh gapdan oldin kelsa ham, ba‘zida undan so‘ng joylashib, bunda bosh gap mazmuniga ko‘shimcha izoh ko‘rinishini olishi ham mumkin.

Bosh gapdan oldin joylashgan ergash gaplarda bog‘lovchi ikkinchi o‘rinda (gapning biron bo‘lagidan so‘ng) kelishi mumkin: *Pə nařay ki ka cə ham lānje aw jagře d’eri pešəgi xo byā də nařay pohān zyār bāsi če də jagro aw lānjo məxa wunisi* ‘Olamda ko‘plab urush va mojarolar ro‘y berayotganiga qaramay, dunyo olimlari ularning oldini olishga intilmoqsilar’.

O‘rin-joy ergash gap bosh gapdagi o‘rin holini izohlab, yoki bosh gapning kesimi qoshidagi yoyiq o‘rin holi vazifasini bajarib keladi. O‘rin ergash gaplar *če* bog‘lovchisi va *če* ishtirokidagi ravishlar: *čire če, čerta če, halta če* bilan boshlanadi. *če* ishtirokidagi o‘rin - joy ergash gaplar bosh gap ketidan keladi: *Mā halta šāx křay če də moyolo syoray mi pər xāwra wu na ši...* ‘Meni shunday joyga ko‘mingki, u yerga mo‘g‘ullarning soyasi ham tushmasin...’.

Natiya ergash gaplar harakat usuli va tusini, shuningdek bosh gapda aytilayotgan belgining namoyon bo‘lish darajasi yoki hajmini tavsiflab keladi. *če* bog‘lovchisini olgan ergash gaplar odatda bosh

gapdan so‘ng kelib, harakat usuli yoki tusini namoyish etadi, aniqrog‘i ular bosh gapdagi *dāsi* olmoshli ravishi yoki birikmalar bilan ifodalangan harakat obrazi holini ochib beradi: *pə dāsi šān*, *pə dāsi d’aul*, *pə dāsi toga*, *daya šān*, *daya d’aul*, *domra* va h.: *Yaw saṛay d’er žala dāsi pə yazab ši če na pohegi cə wāyi aw cə kawi* ‘Ko‘pincha odamning shu qadar jahli chiqadiki, u nima so‘zlab, nima qilayotganligini anglay olmay qoladi’.

O‘xshatish ergash gaplar bosh gapni qiyoslash yordamida izohlab keladilar. Bu kabi ergash gaplar *ləka če*, *ləka cənga če* singari bog‘lovchilar bilan boshlanib, bosh gapda esa ham *dayasi*, *hamdā šān*, *ham daya d’aul* bog‘lovchilari kela oladilar: *Kurdān ləka cənga če də syāsi taškilāto pə lihāz cənācə sara wešəl šəwe da* ‘Kurdlar siyosiy tuzum tufayli alohida yashaganlari kabi, ularning tili ham lahjalarga ajralib ketgan’.

Qiyosiy ergash gaplar deb shunday gaplarga aytiladiki, ularning mazmuni bosh gap mazmuni bilan qiyoslanadi. Bu qiyoslash sifat, miqdor va vaqt jihatidan amalga oshiriladi.

Qiyosiy ergash gaplar *ləka cənga če*, *tər kūmi andāze če* kabi bog‘lovchilar, *comra če*, *har comra* kabi nisbiy ravishlar bilan boshlanishi mumkin. Nisbiy ravishlar ishtirokidagi ergash gap va bosh gaplarda *dayomra*, *hayomra*, *hamayomra*, *pə haya andāza* kabi qiyoslovchi so‘zlar ham ishlatiladi: *Comra če umr zyātegi hayomra də saṛi tajriba ham zyātegi* ‘Insonning yoshi kattalashib borgani sari, uning tajribasi ham shu qadar ortaveradi’.

Ravish ergash gaplar pushtu tilida bosh gapdagi harakatlar qanday shart-sharoitda yuz berayotganini ko‘rsatib beradi. Ergash gapdagi harakatlar bosh gap amallari bilan bir vaqtda ro‘y beradi va albatta u bilan birga bo‘ladi.

Hol ergash gaplar *pə dāsi hāl ki če* qo‘shma bog‘lovchisi bilan boshlanib bosh gap tarkibiga kirishi, shu bilan birga undan keyin joylashishi ham mumkin: *Malik pə dāsi hāl ki če taspe ye jər pə guto ki aṛawəle lə xayme na rāwuwoṭ* ‘Malik, tasbehni shosha-pisha o‘girib, chodirdan tashqariga chiqdi’.

Qo‘shiladigan ergash gapli bosh gap ham shakliga, ham mazmuniga ko‘ra tugallangan gap hisoblanadi. Ergash gap bosh gapda aytilganlarga nisbatan qo‘shimcha ma‘lumot beradi: bosh gapda aytilganlarga baho berish, undan xulosa qilish, bosh gap mazmuniga bog‘liq ba‘zi izohlar va h. Bosh gapning o‘zida esa uning ortida ergash gap mavjudligi to‘grisida hech qanday rasmiy belgi bo‘lmaydi: *Nən mi šəy stərga rapeği ləkače cok rāži* ‘Bugun mening o‘ng ko‘zim uchyapti, menimcha, birov kelsa kerak’.

Pushtu tilida bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar xam mavjud bo‘lib, ularning tarkibiy qismlari (sodda gaplar) o‘zaro ma‘nosi va intonatsiyasiga ko‘ra bog‘lanadilar: *Pə psarli wāšə šnə keği, gulān γwāreği ʈol watan tək šin wi* ‘Bahorda o‘tlar ko‘karib, gullar gullaydi, butun mamlakat yashil rangga burkanadi’.

Sifatdoshli birikmalar

Pushtu tiliga oid sifatdoshli birikmalar odatda rus tiliga ravishdoshli birikmalar yordamida tarjima qilinadi. Pushtu tilidagi sifatdoshli birikmalarda faqat o‘tgan zamon sifatdoshlari qo‘llaniladi: *Də las baks ye pə lās niwəlay yawāzi də xpəl moṭar xwā ta rawān wu* ‘Portfelini olib, u bir o‘zi avtomobili tomon yo‘l oldi’.

Savollar

1. *Pushtu tilida qo‘shma gaplarning nechta turi mavjud?*
2. *Ular qaysi holatlarda qo‘llaniladi?*
3. *Ularning har biriga misol keltiring.*

O‘zlashtirma va ko‘chirma gap

Pushtu tilida birovning fikrini bayon etishda asosan bevosita nutq va ba‘zan ko‘chirma nutq qo‘llanadi. Bevosita nutq odatda qo‘shirnoq bilan ajratilmaydi va muallif so‘zlaridan keyin ikki nuqta qo‘yilmaydi. Muallif so‘zidan so‘ng bevosita nutqdan avval ko‘pincha che bog‘lovchisi qo‘llanadi: *Dūy wāyi če mūğ lāsūna wuminžəl*. ‘Ular: ‘Biz qo‘limizni yuvdik’ deyaptilar’ (ular qo‘llarini yuvganlarini aytishyapti). *Day wāyi če mā d’ūd’əy xwařəle da* ‘U

ovqatlanganligi haqida aytayapti' (U : 'Men ovqatlanganman' deb aytayapti).

Pushtu tilining g'arbiy va sharqiy bo'g'inlari orasidagi ba'zi farqlar

Pushtu tilining g'arbiy lahjasiga ġ va š kabi serebral undoshlari xos bo'lib, tilning sharqiy lahjasida ular o'rnini mos ravishda g va x tovushlari egallaydi.

1. Sharqiy tarmoqning ko'pgina lahjalarida [ə] (zvarakay) tovushi [u] tovushi bilan almashtiriladi.

2. Sharqiy tarmoqning muannas jinsga oid bo'lib, undosh tovush, qisqa [a] (urg'uli va urg'usiz) bilan tugagan so'zlari ko'plik hamda vositali kelishikda [e] bilan tugaydi. G'arbiy bo'g'inda esa bu hollarda urg'uli [a] [e]ga, urg'usizi esa [i"]ga aylanadi.

3. Sharqiy tarmoqqa oid so'z orti qo'shimchalari odatda so'z oldi qo'shimchalarsiz qo'llanadilar.

4. Sharqiy tarmoqda *pər* o'rnini *pə* egallab, *ta* so'z orti qo'shimchasi o'rniga *la* yoki *lara* so'z orti qo'shimcha si qo'llanadi.

5. *kše* so'z orti qo'shimchasi sharqiy lahjada *ke* yoki *ki* sifatida talaffuz etilib, bu tegishli fe'llar imlosida ham aksini topgan.

6. Ba'zi so'zlardagi [m]dan oldin qo'llangan [l] tovushi o'rnini [n] egallaydi. Masalan, *lmar* 'quyosh', sharqiy lahjada - *nmar*.

7. Sharqiy lahjada oid potensial shaklda [ʼ] alif odatda yozilmaydi.

8. Sharqiy lahjada II shaxs ko'plikda hozirgi zamon fe'lining shaxs qo'shimchasi faqat [əy]dan iborat bo'ladi.

9. Sharqiy lahjada III shaxs ko'plikda o'tgan zamon fe'li [o] shaxs qo'shimchasi bilan tugaydi.

10. Sharqiy lahjaning hozirgi zamon majhullik nisbatida odatda *kedəl* 'bo'lmoq', 'aylanmoq' emas, balki *šwəl* fe'li qo'llaniladi.

11. Sharqiy lahjada *lār* 'ketdi' (g'arb. *wlār*), *mā larəlo* 'menda bor edi' (g'arb. *Mā darlod*) qo'llanadi.

Sharqiy lahjada xos ba'zi so'zlar g'arbiy lahja so'zlariga nisbatan o'zgacha talaffuz etiladi, masalan:

Gʻarbiy*zoy* ‘oʻgʻil’*mi* - I sh. birlik. enklitik olmosh**Sharqiy***zoe**me***Afgʻoniston pushtu adabiy tiliga oid boʻlgan oʻziga xos xususiyatlar**

Pushtu tili fonetikasi undosh fonemalar koʻpligi (30 ta) va bor-yoʻgʻi bir necha unli fonema (7 ta) borligi, *t, dʻ, ř, ñ, ğ, š* kabi serebral undoshlari bilan farqlanadi. Morfologiyaning oʻziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

1) soʻz turkumlarining deyarli butunlay morfologik belgilarga ega emasligi;

2) jinsarlarda grammatik kategoriya (muzakkar va muannas) mavjudligi;

3) uch kelishikli turlanish tizimi (bosh, vositali va chaqiruv);

4) ismlar fleksiyasi;

5) soʻz oldi va soʻz orti qoʻshimchalarining mavjudligi;

6) enklitik olmoshllar (*mi, di, ye, mu*) hamda yoʻllovchi-kishilik olmoshlar (*rā, dar, war*) borligi.

Pushtu tili sintaksisining quyidagi xususiyatlari mavjud:

1) gapning ikki xil: nominativ va ergativ konstruksiyasi mavjudligi;

2) kesim odatda gapda soʻnggi oʻrinda keladi;

3) aniqllovchi, odatda, aniqlanmishdan oldin keladi va moslashadigan va moslashmaydigan boʻladi;

4) kesim ega bilan moslashmasligi ham mumkin;

5) ega ham bosh, ham vositali kelishiklarda qoʻllangan istalgan ot bilan ifodalanishi mumkin.

MUNDARIJA

Kirish	3
Pushtu tili tovushlari tizimi. Unli tovushlar	4
Diftonglar.....	7
Pushtu tili undoshlari jadvali	8
Urgʻu.....	9
Pushtu tili yozuvi	10
Morfologiya.	14
Ot.....	15
Sifat	22
Pushtu tilida sifat darajalari.....	24
Sifatlarning yasalishi	25
Son	27
Kasr sonlar	31
Numerativlar.....	32
Olmosh.....	33
Feʼl	37
Zamon kategoriyasi	42
Mayl kategoriyasi	47
Nisbat kategoriyasi	50
Bogʻlovchilar.....	53
Yuklamalar. His-hayajon soʻzlar	54
Sintaksis	54
Sodda gap	56
Qoʻshma gap.....	60
Oʻzlashtirma va koʻchirma gap	66
Afgʻoniston pushtu adabiy tiliga oid boʻlgan oʻziga xos xususiyatlar.....	68

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

Texnik muharrir:
Musahhih:
Komyuter verstkasi:

A.Nishanbayeva
H.Mirzaahmedova
N.Hamidova

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta va maxsus ta’lim vazirligining 2013-yil 19-apreldagi 128-sonli buyrug‘iga asosan 5120100- Filologiya va tillarni o‘qitish (tillar bo‘yicha) yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalar uchun asosiy o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan (Ro‘yxat raqami 128-078)

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013